

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**Xorazm mintaqasida o‘troq turmush tarzining shakllanishi va
rivojlanishi (bronza va temir asri)**

Bajardi: “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” ta'lim
yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabasi Sobirov M.

(imzo)

Ilmiyrahbar: “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi Mamarahimova B.

(imzo)

TOSHKENT-2012

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Jahon siyosati va tarix”

fakulteti dekani

s.f.n., I.N. Bekmuratov

“ ____ ” _____ 20 ____ yil

“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”

kafedrası mudiri

t.f.n., Sh.J.Saidov

“ ____ ” _____ 20 ____ yil

Mundarija:

Kirish

1-bob. Xorazmda o'troq manzilgohlarning vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari

1.1 Xorazmda o'troq dehqonchilik madaniyatning vujudga kelishining ijtimoiy iqtisodiy asoslari

1.2 Xorazmda bronza davri manzilgohlari va ularning klassifikatsiyasi

2-bob. Xorazm mintaqasida temir davri manzilgohlarining vujudga kelishi va rivojlanish dinamikasi

2.1 Xorazm mintaqasida ilk temir davri va Amirobod madaniyati

2.2 Temir davrida Xorazmda shaharsozlik madaniyati: shakllanishi va rivojlanishi

Xulosa

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

Ilova

Mavzuning dolzarbligi. Xorazm vohasida yashovchi xalqlar tarixi hamda tarixini bayon etish masalalari o'rganish birinchi navbatda, O'rta Osiyo ushbu mintaqada tarixining alohida madaniyatga egaligi nilan bog'liqdir. Aynan mana shu mintaqada o'rta osiyoning boshqa hududlariga nisbatan ko'plab asrlar avvalroq ilk madaniyat manzilgohlari vujudga kelgan hisoblanadi. Xorazm vohasi va unga yondosh hududlarda yashagan hamda yashayotgan xalqlarning tarixi, arxeologiyasini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

1998 yil 28 iyunida Prezident Islom Karimov tarixchi olimlar va ijodkor ziyolilar vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvdan so'ng tarixga bo'lgan e'tibor, uni o'rganishga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj yangi bir bosqichga ko'tarildi. Ushbu uchrashuvda davlat rahbari haqqoniy tarixni tiklash borasidagi eng dolzarb masalalarni ko'rsatib berdi. Hech qaysi bir xalq o'tmishini o'rganmay turib, o'zining zamon va makonidagi o'rnini aniq belgilab olmasdan, nasl - nasabini, kimligini bilmasdan turib, rivojlanishi mumkin emasligini aytib, «Tarixiy xotirasiz, kelajak yo'q» deya ta'kidlagan edi¹.

Xorazm qadimdan dehqonchiligi va shahar madaniyati rivojlangan, ayni vaqtda, ko'chmanchi chorvador qabilalar yashagan hududga chegaradosh bo'lgan tarixiy-madaniy viloyat sifatida nafaqat O'zbekiston, xususan Markaziy Osiyo mintaqasi tarixida muhim o'rin tutadi. Bu yerda maxsus o'rganish va umumlashtirishni taqozo etuvchi tarixiy-madaniy taraqqiyotning murakkab jarayonlari sodir bo'lganki, bu muammo O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo tarixi uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Shu boisdan ushbu mintaqada tarixchilar, arxeologlar, etnograflar va

¹Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q// Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T-7.Toshkent 1999. 135 b.

shuningdek, boshqa soha vakillarining ham diqqat markazida ekanligi tasodifiy emas.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadiva vazifalari.Xorazm mintaqasida o'troq turmush tarzining shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari dinamikasini o'rganish, tahlil qilish va shu asosda xulosalar berish. Maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifa qilib olindi:

- ❖ Xorazm mintaqasida ilk madaniyatni vujudga kelishini o'rganish;
- ❖ Xorazm mintaqasida o'troq turmush tarzining shakllanishi bronza va temir davri doirasida o'rganish;
- ❖ Xorazmdagi bronza va temir davri manzilgohlari tafislotlarini tadqiq etish;
- ❖ Xorazm mintaqasidagi shaharsozlik madaniyati vujudga kelishi va takomillashuvi tahlil qilish;

O'rganilganlik darajasi.Xorazm mintaqasi o'zining arxeologik maskanlari, tarixi va madaniyati bilan ko'pgina tarixchi, arxeolog-tadqiqotchilarni o'ziga jalb etadi. Xorazm hududidagi ilk o'troq turmush tarzi manzilgohlarini o'rganishda 1937 yilda tashkil etilgan va 40 yil davomida mutassil ravishda Sergey Pavlovich Tolstov rahbarlik qilgan Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasining ulkan rolini so'z bilan ifodalash qiyin. Unda qatnashgan xodimlarning tirishqoqligi va tashabbuskorligi bu ekspeditsiyani tarix fanining yirik ilmiy guruhiga aylantirdi.

Xorazmning o'troq turmush tarzi madaniyatlarini o'rganishda S.P. Tolstovning alohida o'rni bor ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. S.P. Tolstovning²<<ДревнийХорезм>> (Qadimgi Xorazm),

²С. П. Толстов,По следам древнехорезмийской цивилизации. Издательство АН СССРМосква • Ленинград1948, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва—1948., По древнем дельтамОкса и Яксарта, Москва, Наука – 1962.

<<Последамдревнехорезмийскойцивилизации>>(Xorazmning qadimiy madaniyati izlari bo'ylab), <<По древнем дельтамОкса и Яксарт>> (Oks va Yaksartning qadimiy daltalari bo'ylab) asarlari juda muhim fundamental asarlar hisoblanadi. Bu tadqiqotlarda Xorazm tarixini davrlarga bo'lish hamda ijtimoiy tuzumi, xo'jaligi va madaniyati asoslari yoritib berilgan hisoblanadi.

O'zbek arxeolog olimi Ya. G'ulomov³ ham o'zining tadqiqotlarida Xorazmning qadimiy madaniyati tarixi, uning vujudga kelish omillari va shart-sharoitlariga baho berib o'tgan hisoblanadi. Bu tadqiqotchi olim o'ining asarlarida Xorazmda o'troq-dehqonchilik madaniyati vujudga kelishi, sug'orish inshootlarining barpo etilishi va sug'orma dehqonchilikning rivojlanish dinamikasi, Xorazmda bronza va temir davrlarida o'troq turmush tarzining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarini keltirib o'tadi.

Xodjaniyozov G'ayratdinning⁴ bir qancha asarlarida Xorazmning temir davridan boshlab shakllangan va rivojlangan shharsozlik madaniyati, uning vujudga kelish shart-sharoitlari, Xorazm mudofaa inshootlari va Xorazm shharsozligining o'ziga xos xususiyatlari ham umumiy tavsifi keltirib o'tilgan bo'lib, o'sha davr to'g'risida qimmatli ma'lumotlar hisoblanadi.

Bundan tashqari Xorazmning qadimiy madaniyati bo'yicha Jdanko T. A.⁵, Manilov Yu.P.⁶, Yagodin V.N.⁷, Terenojkin A.I.⁸, Farmozov A.A.⁹ tomonidan

³Я.Г. Гуломов , Хоразм сугорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача) ЎзССР ФА нашриёти. Тошкент – 1959. G'ulomov Y. Qadimgi Xoprazmning sug'orilish tarixidan. Toshkent. - 1956.

⁴Ходжаниязов Г. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. (Мил.авв. VI асрдан – милодий IV асргача). Тошкент, <<Ўзбекистон>>, 2007.Ходжаниязов Г. Новые данные об оборонительных сооружениях Аяз калы 3. // ВКФ АН РУз. N 4. Нукус, 1987, 102-105 стр.

⁵ Жданко Т. А. Этнографические исследования Хорезмской экспедиции (народы,проблемы, труды)// Культура и искусство Древнего Хорезма. –М.: 1981

⁶Манылов Ю. П., Ходжаниязов Г. Аяз кала 1 и Бурлы кала. (К изучению Хорезмской фортификации). // Археологические исследования в Каракалпакии. Ташкент, <<ФАН>>. 1981.

⁷ Ягодин В.Н., Ходжаниязов Г. Вал Девкескенский. (К вопросу о функции и хронологии). // ВКФ АН РУз. N3. Нукус. 1986.

⁸А.И. Тереножкин. О древнем гончарстве в Хорезме. Уз ФАН СССР Ахбороти, 1940,N 6, 1 табл.,1 – 2-фиг.

o'rganilib, tadqiq qilingan. Shuningdek, quyidagi internet manabalarini¹⁰ ham bu mavzu yuzasidan manbalar qatoriga qo'shishimiz mumkin.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti. Xorazm mintaqasida o'troq turmush tarzining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq tarixiy jarayonlar tadqiqotning predmetini tashkil qilsa, mavzuni o'rganishga xizmat qiluvchi arxeologik va yozma manbalar, tadqiqotchilarning asarlari bo'ektini tashkil qiladi

Ilmiy yangiligi. Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishildi:

- ❖ Xorazm mintaqasida ibtidoiy madaniyatning vujudga kelishi yoritib berildi;
- ❖ Xorazm mintaqasida o'troq turmush tarzining shakllanishi bronza va temir davri doirasida o'rganildi;
- ❖ Xorazmdagi bronza va temir davri manzilgohlari tafsilotlari bayon etildi;
- ❖ Xorazm mintaqasidagi shaharsozlik madaniyati vujudga kelishi va takomillashuvi tahlil qilindi;

Ilmiy va amaliy ahamiyati. O'rta Osiyodagi hech bir hudud shu vaqtgacha Xorazmdek boy arxeologik materiallar bergan emas. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, Xorazmda o'troq turmush tarzining vujudga kelishi va rivojlanishi, bronza va temir davri bevosita davlatchilimiz tarix bilan

⁹A.A. Фармозов, Об открытии кельтеминарской культуры в Казахстане, Вестник КазФАН, 1945.

¹⁰http://www.culture.gov.tm/Keneurgenc/Keneurgenc_eng.html.

<http://gym1505.ru/posle-urokov/nauka/arkheologicheskii-muzei/ekspozitsiya-muzeya/bronzoviy-vek>

www.opentextnn.ru/history/archaeology/expedition/Tolstov/?id

www.sovslov.ru/tolk/kulyttura.html

bog'lanib ketadi. Shuning uchun bu mavzuning ilmiy ahamiyati nihoyatda balanddir.

Mavzuning nazariy asosi.Mavzuni o'rganish jarayonida unga haqqoniy, ilmiy tahlilga asoslangan qarash, xolislik, tarixiylik tamoyili, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yondashishga harakat qilindi. Masalani yoritishda manbashunos, tarixchi ofimlarning tarixiy -ilmiy xulosalari va I. A. Karimovning asarlarida, nutqlarida ilgari surilgan g'oyalar va fikrlari nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qildi.

Tarkibiy tuzilishi.Mazkur bitiruv malakaviy ish, tarkibiy jihatdan kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

1-bob. Xorazmda o'troq manzilgohlarning vujudga kelishini ijtimoiy-iqtisodiy asoslari

1.1 Xorazmda o'troq-dehqonchilik madaniyatning vujudga kelishini ijtimoiy-iqtisodiy asoslari

O'rta Osiyodagi hech bir hudud shu vaqtgacha Xorazmdan boy arxeologik materiallar bergan emas. Bu albatta, vohani muntazam va keng ko'lamda o'rganish natijasi bo'lib, biroq o'rinda shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, jonsiz sahrolar o'tmishdagi odam turmushi haqidagi dalillarni yaxshiroq va ko'proq saqlab qoladi. Shuning uchun ham Xorazm arxeologik yodgorliklari sahro sharoitida saqlanib qolishi tufayli qo'lga kiritilgan.

Xorazm – Amudaryoning quyi oqimidagi voha va mamlakat. Xorazm qadimgi fors manbalarida Xvarazmish, <<Avesta>>da Xvarizam, yunon manbalarida Xorazmiya deb yuritilgan. “Uvarizmi”, ya'ni Xorazm toponimini izohlashda mutaxassislar uning oxiridagi “zmi” ni “yer” degan ma'noni bildirishida yakdillar. Bosh qismidagi “Uvara” esa “boquvchi”, “unumdor yer” degan ma'noni bildiradi. Mutaxassislar bu borada teng ikkiga bo'linadilar. “Uvarizmi” so'zi uch qismdan iborat degan taxminlar ham suriladi. Uvarizmi = xu – yaxshi + vara – devor + zmi – yer; R. Kent tomonidan ochiq qoldirilgan “vara” ma'nosini M.N. Bogolyubov “Chorva uchun yaxshi mustahkamlangan (joylari) bor mamlakat”, “Yaxshi varalari bor mamlakat” deb sharhlaydi. Izohlanishi birmuncha qiyin bo'lgan “Vara” hindu-oriy tilidagi “var-

” fe’li o’zagiga borib taqaladi. Bundan tashqari Xorazm “quyoshli yer” degan talqin ham ko’p tarqalgan¹¹.

Xorazm – Amudaryo tuhfası. Shu sababli ham o’rta asr arab tarixchisi Istaxriy Xorazm – Jayhundan butun foydani so’rib oluvchi mamlakat degan. Amudaryo Amul (keyinchalik Chorjo’y) shahri nomidan olingan. Arablar uni hayqirib oqqanligi uchun Jayhun (Bibliyadagi afsonaviy Tixon), yunonlar esa uni Oks (faqatgina Gerodot uni Araks deb atagan) deb atashgan. Y. G’ulomov fikricha, yunonlar sak-massagetlar tomonidan O’kuz deb nomlangan daryoni o’z tillariga moslab Oks deb nomlay boshlaganlar¹². Ba’zi fikrlarga qaraganda, Oks sug’d, boxtar tillaridagi Vaxsh va Amu suvlarining homiysi, ma’bud Ouxshuning nomidir¹³.

Xorazmning qadimgi sivilizatsiyasining boshlanish davri antik davrdan ham oldinroq ibtidoiy davrlarga borib taqaladi. Bu yodgorliklarni muhim jihati shundaki, xalqlarning ijtimoiy rivojlanish tarixini o’rganishda boshlang’ich bosqich hisoblanadi. Aynan Xorazmda bu bosqichning juda aniq moddiy yodgorliklari topilgan¹⁴.

1939 yil yozida S. P. Tolstov rahbarligi ostida ishlagan arxeologik ekspeditsiya antik shahar - Jonbosqal’a shahri ichida qazish ishlari olib bordi¹⁵.

Shu bilan bir vaqtda bu shahar atrofıdagi hududda dastlabki tekshirish ishlari o’tkazildi va shu yerdataqir ostidan birinchi marta ibtidoiy odamning amkoni topildi. Bu joyda odamlarning mehnat faoliyati yoqilgan gulxanning

¹¹ M.Ishoqov, S.Qudratov, D.Qodirova. O’rta Osiyo ilk shahrlari va davlatlari tarixidan. Toshkent. - 2010. B 141.

¹² G’ulomov Y. Qadimgi Xorazmning sug’orilish tarixidan. Toshkent. -1956

¹³ Топрак-кала. Дворец. Москва: 1984 (Глава VI. Документы. Чтение и комментарии В.А. Лившица).

¹⁴ Я.Ф. Гуломов, Хоразм сугорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача) ЎзССР ФА нашриёти. Тошкент – 1959, 44 бет

¹⁵ С.П. Толстов, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва —1948, 62 с.

kuli, retush qilingan tosh qurollar, juda sodda qilib yasalgan sopol idish bo'laklari va hokazolar darhol ko'zga tashlanadi¹⁶.

1940 yilning yoz mavsumidan ibtidoiy odam yashagan bu makonda qazish ishlari boshlanadi, 1945 yilda tamomlandi. Chunki urush vaqtida bu ishlar to'xtatilib qo'yilgan edi¹⁷.

Bu makon <<Jonbosqal'a>> № 4 deb ataladi va uning madaniyati kaltaminorlilar¹⁸ madaniyati>> nomi ostida yuritiladi.

O'rganilayotgan bu makon Jonbosqal'a balandligi yonbag'rida, shu nomli antik shahardan 1,5 km janubi-g'arbda, qizg'ish-kulrang tusli qadimgi qum barxanlarining birida joylashgan edi. Jonbosqal'a balandligi yondoshgan butun aylana xuddi yaqin o'tmishda bu yerlar uning ostidagi mikrorel'ef xarakteriga butunlay bo'ysungan pushti-kulrang tusli taqirsimon sog'tuproqning yupqa qatlami bilan qoplanib turganday taasurot tug'diradi. Hozirgi vaqtda bu qoplam intensiv ravishda nuramoqda¹⁹.

Makonni qazish vaqtida olib borilgan kuzatishlar uni qurishdan avval barxanning usti, garchi juda puxta bo'lmasa ham, tekislanganligini ko'rsatadi; so'ngra to'sin, xoda va qamishdan kappa qurilgan. To'sin-ustunlarning bir uchi qumga ko'milgan. Ustun qatorining joylashishi va boshqa belgilar makonni oval shaklda qurilganligini ko'rsatib turadi. S. P. Tolstov bu kapaning shaklini mandanlar, bakair va ayniqsa andamanlar jamoalarining kulbalariga o'xshatadi. Kaltaminorlilar makonining tomini yopilishi o'z olani bo'yicha ham 100 – 125 kishiga mo'ljallangan ko'p qirrali konus shaklidagi deb o'ylash imkoniyatini beradi²⁰.

¹⁶ Я.Ф. Гуломов, Хоразм сугорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача) ЎзССР ФА нашриёти. Тошкент – 1959, 44 бет

¹⁷ С.П. Толстов, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва —1948, 62 с.

¹⁸ Kaltaminor madaniyati o'z nomini Paxtaarna sistemasidagi hozir ham ishlab turgan kanal nomidan olgan.

¹⁹ Я.Ф. Гуломов, Хоразмсугорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача) ЎзССР ФА нашриёти. Тошкент – 1959, 45 б

²⁰ С.П. Толстов, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва —1948, 62 с.

Kaltaminorliklar o'z qurollarini faqat tosh va suyaklardangina yasaganlar. Makonning qatlamida chaqmoqtoshdan qilingan son-sanoqsiz buyumlar, eng muhimi, turli maqsadlar uchun ishlatilgan jajji, ingichka, pichoqsimon plastinkalar (qirg'ichlar, taroshlagich, nishlar, suyakdan qilingan katta qurollarga o'rnatiladigan tig'lar) qalashib yotardi. Bunday plastinkalardan bir uchli, faqat bir tomoniga ishlov berilgan nayza uchlari tayyorlaganlar, shuningdek, ikki tomonidan silliqilgan, uch burchakli ingichka nayzalar uchraydi. Katta qurollarni (masalan, trapetsiya shaklidagi katta toshbolta) silliqilgan toshdan yasalgan. Bezak buyumlari asosan chetdan keltirilgan chig'anoqlardan va toshdan ishlangan. Chig'anoqdan yasalgan silindr shaklidagi mayda marjon va chig'anoqdan yoki silliqilgan tosh plastinkalardan qilingan, bir uchi teshik tuxum shaklidagi ziraklar ayniqsa xarakterli bo'lgan²¹.

Asosan baliq (ko'proq cho'rtan va laqqabaliqlar) iste'mol qilingan. Makonning madaniy qatlamida baliq suyaklari to'lib-toshib yotadi. Baliqchilikdan tashqari, ov ham muhim tirikchilik vositalaridan bo'lgan. Qobon, bug'u, suvda yashovchi qushlarning suyaklari ham ko'p uchraydi²².

Ovqat charxda emas, qo'lda yasalgan tagi o'tkir uchli sopol idishlarda pishirilgan. Idishlarga shtampovka qilib va chizib ishlangan sehasham bezaklar muurakkab geometrik shakllar hosil qiladi. Idishlarning devorlari ancha yupqa bo'lib, yaxshi pishirilgan. Ko'pchilik idishlar pishirilgandan keyin sirti qizil buyoq bilaqn bo'yalgan, lekin, aksar bo'yoqlari o'chib ketgan²³.

Buyumlar shaklining turli-tumanligi va bezagining serhashamli bilan hayratda qaooldirai. Jumladan, shakl jihatdan bo'ylanmasiga qoq o'rtasidagi kesilgan tuxumning yarmini eslatuvchi <<qayiqsimon idishlar>>diqqatga

²¹ С. П. Толстов, По следам древнехорезмийской цивилизации. Издательство АН СССР Москва • Ленинград 1948, 75 с.

²² Ўша асар, 75 с

²³ Ўша асар, 76 с

sazovordir. Bezaklar asosan, taroqqa o'xshash shtamplarning shaklini bosish va o'tkir uchli narsa bilan turli shakllarni chizish yo'li bilan hosil qilingan²⁴.

Kaltaminorlilarning turar joylari ayniqsa diqqatga sazovor. Plani tuxum shaklini eslatadigan yog'och va qamishdan ishlangan bu ulkkan (24x17 m) inshoot qachonlardir baland qum tepa ustiga qurilgan edi. Binoning umumiy markazga ega bo'lgan uchta sinchi bo'lib, ular markazda – bosh o'choqning atrofida, uyning chekkasida va har ikkalasining o'rtasida joylashgan²⁵.

Kaltaminorliklarning uyida, bolalarni ham qo'shib hisoblaganda 100 – 120 kishidan iborat urug'dosh jamoa istiqomat qilgan. Oila o'choqlarning barqaror emasligiga, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib yurilganligiga va mohiyat e'tibori bilan o'choq emas, balki gulxan ekanligiga qaraganda, bu vaqtda oila xo'jalik-turmush jihatidan urug'dan ajralib chiqmagan. O'chmay yonib turadigan muqaddas o'choq ijtimoiy hayotning markazi hisoblangan. Kiraverishda chap tomonidagi bo'linmalarda gulxanlar yo'qligining boisi shuki bu joyda jamoa urf-odati bajarilgan va marosimiy raqslarga tushilgan. Nihoyat, bu bo'linmaning chekkasidagi ichik gulxanlar xuddi andamanliklar uyidagi singari, bu yerning bo'ydoq yigitlar joyi ekanligidan darak bersa kerak: chunki ular oila o'chog'ida pishirilgan ovqatni iste'mol qilganlar, gulxanlarda esa, aftidan, sovuq kechalari isingan bo'lsalar kerak²⁶.

Makonning butun maydonida bir-biridan baravar masofada diametri 50 – 70 sm keladigan yumaloq yuzagina chuqurchalar bor. Ular juda ko'p bo'lib, bu chuqurchalar gulxan yoqilgan hamda uning atrofida ayrim oilalar joylashgan va ovqatlangan. Har bir o'choq chuqurining atrofida va ichida, kuldan tashqari, qurollar, ro'zg'or anjomlari va asosan oshxona qoldiqlari deb ataladigan

²⁴Ўша асар, 77 с

²⁵Ўша асар, 77 с

²⁶С.П. Толстов, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва —1948, 62 с.

qoldiqlar sochilib yotardi. Oshxona qoldiqlari baliq suyaklaridan iborat bo'lib, ular butun maydondagi madaniy qatlamda juda ko'p miqdorda uchraydi²⁷.

Uy anjomlari asosan ochiq gulxanlarda pishirilgan kulolchilik idishlardan iborat. Ular o'tga chidamli dag'al loydan qo'lda ishlangan bo'lib. Tagi dumaloq turli xildagi idishlardir. Bularning ba'zilar ancha qalin ishlangan bo'lib, tarkibiga ko'p miqdorda dresva aralashgan. Bu idishlarning ko'pchiligining sirt tomoni bosma yoki chizma naqshlar bilan bezatilgan. Bezaklar asosan halqa-halqa qilib, idishning yuqori qismiga solingan²⁸.

Tarkibiga juda oz miqdorda dresva aralashgan yaxshi qorilgan mayin loydan ishlangan idishlar ham uchraydi. Ular bir muncha yaxshi pishirilgan va ancha yengildir²⁹.

Ovchilik va moddiy turmush jihozlari chaqmoqtoshdan yasalgan mikrolitoid va suyak buyumlardan iborat. Toshidan ishlangan buyumlar o'ining turli –tumanligi bilan ajralib turadi. Ular ichida ko'proq suyak va yog'och qurollar qadaladigan uzunchoq vkladishlar bor.

Bezaklar esa judo ko'p miqdorda topilgan suyak va chig'anoqlardan ishlangan silindrcha shakldagi mayda munchoqlardan iboratdir³⁰.

Bu makonlar va ularda topilgan turli narsalar ularda yashgan odamlarning turmushini ko'oldimizga keltirishga imkon beradi, shuningdek ularning asosiy turar joyi ana shu oilaviy o'choqlar atrofida bo'lganligini ko'rsatadi³¹.

Makonning markaziy qismida qalin kul qatlamiga nisbatan katta o'choq chuquri topildi. S.P. Tolstovning fikricha, bu o'choq urug'ning o'chmaydigan muqaddas olovi yonadigan joyi bo'lgan. Bu o'choq yonida urug' boshlig'i

²⁷ Я.Ф. Гуломов, Хоразм сугорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача) ЎзССР ФА нашриёти. Тошкент – 1959, 45-46бетлар

²⁸ С. П. Толстов, По следам древнехорезмийской цивилизации. Издательство АН СССР Москва • Ленинград 1948, 77 с

²⁹ Я.Ф. Гуломов, Хоразм сугорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача) ЎзССР ФА нашриёти. Тошкент – 1959, 46 б

³⁰ Ўша асар, 46 б

³¹ Ўша асар, 46 б

o'tirgan bo'lishi kerak, hozirgacha topilgan birdan-bir bu o'choqqa qarab, u muqaddas bo'lganligi haqida va demak, bu davrda mazdaizmmavjudligi haqida ham fikr yuritish qiyin albatta. Bizning olimlarimiz o'rtasida keying yillarda mazdaizm O'rta Osiyodan va hatto Xorazmdan kelib chiqqan degan fikr tug'ildi. Bu fikrni Bundaxishning birinchi muqaddas olovni - << Adar Xurro>>ni Jamshid Xorazmda yoqqan³² deb tasdiqlashi asosida tug'ilgan.

Xorazm tarixining keyingi davriga oid bo'lgan bu kabi makon va yodgorliklarning yana topilishi qadimgi O'rta Sharq xalqlari ideologiyasining rivojlanish tarixidagi juda muhim bo'lgan bu sharoit haqida dadillik bilan gapirishga imkon beradi.

Kaltaminor madaniyati yodgorliklarini boshqa madaniyatlar bilan taqqoslab kaltaminor madaniyatining unga muvofiq keladigan Shimoli-sharqiy Evropa, Uralbo'yi va Janubi-g'arbiy Sibir neoliti va eneoliti madaniyati yodgorliklariga yaqinlashib kelishini aniqlashda S.P. Tolstovning xizmatlari beqiyosdir³³.

Kaltaminor madaniyatiga oid ikkinchi makon 1946 yilda A.I. Terenojkin³⁴ tomonidan Buxoro vohasidan Shimol tomondagi Quljuqtov tog' etaklari hududida topilgan. Makon katta qoq* ustida joylashgandir. Quljuqtov makonida topilgan kulolchilik buyumlari va toshdan ishlangan buyumlar kaltaminorda topilgan shunday buyumlarga juda ham o'xshaydi. A.A. Formozov tomonidan G'arbiy Qozog'istonda so'znggi kaltaminor tipiga kiruvchi makon tekshirilgan bo'lib, uning qadimiy madaniy qatlamida topilgan suyaklarning ko'pchiligi uy hayvonlarinikidir³⁵.

Ibtidoiy kaltaminorliklarning etnik jihatdan qaysi xalqqa mansubligi to'g'risida hozircha biror bir aniq fikr aytish qiyin.

³² С.П. Толстов, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва —1948,62 с

³³ Ўша асар, 62 с

³⁴ А.И. Тереножкин, Археологическая разведка в западной части Узбекистана, ВДИ, 1947.

* Qoq – hovuz, to'g'rirog'i dashtlarda yomg'ir suvlarining to'planib qolishidan hosil bo'lgan halqob

³⁵ А.А. Фармозов, Об открытии кельтеминарской культуры в Казахстане, Вестник КазФАН, 1945.

Shunday qilib, afanasev-kaltaminor madaniyati tarqalgan arealni belgilash mumkin. Demak, Prikamye va Quyi Obdan boshlab to Minusinsk o'lkasi va O'rta Osiyo hududining katta qismini o'z ichiga olgan Sharqiy Turkistongacha bo'lgan taxminiy etnik aloqalarni belgilash mumkin.

O'rta Osiyo bilan Sharqiy Eron o'rtasidagi taxmin qilingan aloqalar yangi eradan avvalgi I va, ehtimol, II ming yillikda bo'lmagan, chunki o'sha davrda bu o'lkalar o'rtasida istiqomat qilgan aholida hind-evropa etnik-lingvistik elementi ustun bo'lganligi aniq. Aloqalar yangi eradan avvalgi IV – III ming yilliklarda, ya'ni Kaltaminor madaniyatini yaratgan xalqlar bu aloqalarning vositasichisi bo'lgan, deb taxmin qilingan davrda mavjud bo'lgan³⁶.

Jonbos-4 ni qazish paytida qo'lga kiritilgan va Xorazm neolitining boshqa makonlari (Jonbos-5 va boshqalar) dan to'plangan materiallar eng qadimiy Xorazm aholisi olib borgan madaniy va etnik aloqalarning ba'zi yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Eng muhimi shundaki, bu aloqalar O'rta Osiyo qadimgi tarixining etnik tomoni to'g'risidagi traditsion tasavvurlarga qarama-qarshi o'laroq – Qozog'iston, Sibir va shimoli-sharqiy Evropaga borib taqaladi³⁷.

Ushbu pragragfa xulosa qilib, shinu aytish mumkinki, Xorazmda ilk ibtidoiy madaniyatning vujudga kelishi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bu yerda topilgan ahyoviy dalillar buning yaqqol namunasi hisoblanadi. Eng muhimi jifati shundaki, Xorazmning ibtidoiy madaniyatlarining barchasi, kanllar bo'zyida joylashgan bo'yida joylashgan bo'lib ularning barchasi mana shu kanallar nomi bilan bog'lanadi.

1.2 Xorazmda bronza davri manzilgohlari tafsilotlari

³⁶ С. П. Толстов, По следам древнехорезмийской цивилизации Издательство АН СССР Москва • Ленинград 1948, 81 с.

³⁷ Ўша асар, 82 с.

Bronza asri – tarixiy-oldingi madaniyat markazlarida bronzaning tarqalishi va bu metaldan o'sha yerlarda mehnat va jang qurollarining keng yoyilishi bilan xususiyatlanuvchi bir davrdir. Boshqa hududlarda xuddi shu vaqtda Neolit davri yoki metallni o'zlashtirishga o'tish davri davom etayotgan edi. Bronza asrining taxminan miloddan avvalgi IV mingyillikning oxiri – I mingyillikning boshlari hisoblanadi. Bronza – bu misni boshqa metallar bilan (qalay, qo'rg'oshin, rux) arlashuvidan hosil bo'lib, misdan pastroq haroratda (700-900°C) erishi bilan farq qiladi. Metal quyilgandan so'ng o'ta sifatli va mustahkamligi, uni tezda tarqalishini ta'minladi. Bronza asri mis asrining davomchisi hisoblanadi.

1938 yilda S.P. Tolstov va A.I. Terenojkinlar tomonidan Berkut qal'a va Norinjon o'rtasidagi qumliklarda o'tkazilgan qidiruvlarda Xorazmning boshqa manzilgohlaridan farq qiluvchi sopolchilik buyumlari aniqlandi. Bu yerning kulolchilik buyumlarining aniq ko'rinib turgan belgilari, bu madaniyatni bronza davri, aniqrog'i II ming yillikning o'rtalari deb davrlashtirishga aniqlik kiritadi.

Bu kulolchilik buyumlari juda kuchli pishirilgan va kulolchilik charxisiz yaratilgan bo'lib, idishlarning yuqori qismi uchburchakli va burchakli chiziqlari bilan ajralib turuvchi naqshlar bilan bezatilgan. Bunday o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan sopol buyumlar Volgabo'yi, Qozog'iston va Minusinsk o'lkasi bronza asri kulolchiligiga juda yaqin bo'lib, bular srubnoy (Volgabo'yi) va andronov (Qozog'iston va Sibir) madaniyatlariga xos hisoblanadi³⁸.

Bu juda aniq ko'rinib turgan belgilar orqali janubi-sharqiy Evropaning dasht mintaqasi va Osiyoning cgearadosh hududlarida o'ziga xos bronza davrining variantini o'zida mujassam etib, bronza davri deb davrlashtirishga,

³⁸ С.П. Толстов, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва —1948. 66 – 68 стр

aniqrog'i miloddan avvalgi II mingyillikning o'rtalari deb davrlashtirishga imkon beradi³⁹.

Bu materialning tafsilotlarini tahlil qilgan holda, aytish mumkinki, u juda aniq bo'lgan tarixiy xulosa qilishga imkon beradi. Ulardan birinchisi Xorazm neolitikabi Xorazm bronza davri O'rta Osiyoning (Anov va anov madaniyatiga o'xshash) janubiy mintaqasining uyg'unlashmasdan, Sharqiy Evropa, Qozog'iston va Sibirning dasht zonalari bronza asriga tutashib ketadi⁴⁰.

1940 yilda S.P. Tolstov tomonidan Anqa-qal'adan shimoli-sharqda aynan mana shu davrga xos bo'lgan manzilgoh ochib o'rganildi, natijada osti yassi sopol buyumlarining juda ajoyib namunalari topildi. Bu topilmalar tufayli Kaltaminor madaniyati xususiyatlarini o'zida meros qilib olgan, tadqiqotchilar tomonidan Tozabog'yop va Amirobod deb nomlangan ilk temir davriga xos bo'lgan madaniyatlar - Xorazmning bronza asri madaniyatlarini o'rganishga imkon yaratdi⁴¹.

Amirobod madaniyati sopol idishlari kaltaminor madaniyati ornamentining (bu madaniyatni srubnoy va andronov madaniyatlariga yaqinlashtiradigan ustunlik qiluvchi yangi belgilari bilan birgalikda), juda ko'pgina xususiyatlarini o'zida mujassam etib, idish devorining yon tomoniga chiqib turgan pastki qismlari, tubining o'ziga xos shakli jihatidan, xuddi shunday xususiyatga ega bo'lgan Amirobod madaniyati bilan bog'liqligidan dalolat beradi⁴².

Qo'shimcha ravishda Tozabog'yop madaniyati sopol buyumlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin. Idish korpusining bo'yniga tomon burilishidagi tasmasimon naqsh, qoidaga ko'ra, idishni har tomondan o'rab tutuvchi ikkiga bo'lingan, bir-biri bilan uchburchak shaklida bir-biriga qo'shilib ketuvchi chiziqlardan iborat.

³⁹Ўша асар, 66 – 68 сгр

⁴⁰Ўша асар, 66 – 68 сгр

⁴¹Ўша асар, 66 – 68 сгр

⁴²Ўша асар, 66 – 68 сгр

Xorazm bronza davri kulolchiligining andronov va srubnoy madaniyatlariga yaqin ekanligi, Xorazmning xo'jalik asoslari va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi bu davrda tadqiqotchilar tomonidan juda yaxshi o'rganilgan bo'lib, boy Qozog'iston va Sibirning andronov manzilgohlari va Volgabo'yidagi srubnoy manzilgohlaridan jiddiy ravishda farq qilmaganligini tasavvur qilishimizga imkon yaratadi. Lekin baliqchilik va ovchilik hali hanuz saqlanib qolgan, asosiy xo'jalik turi esa chorvachilik (qo'y, qoramol, ot) va so'qali dehqonchilik (bug'doy va boshqali ekinlar) bo'lgan. Hayvonlar suyaklari va don qoldiqlari, hamda don donalari, suyakdan yasalgan so'qalar, bronza o'roqlar bilan bir qatorda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan dalolat beradi. Turar joylarning turi ham o'zgarib boradi. Srubnoy va andronov madaniyati manzilgohlari turar joylari to'g'riburchakli, nishabli tomlarini ustunlar ko'tarib turadi. Turar joylarning bo'lchovi Kaltaminor madaniyatiga o'xshash. Voronej yaqinidagi Kostenok Srubnoy davri turar joylari 20x9 m hajmda bo'lib, Don dagi Lyanichev qo'rg'oni turar joyiga o'xshash (20x9 m va 20x8 m) dir. Ammo, xuddi Kaltaminor turar joylari kabi umumiy markazda joylashgan va bu yerda yashayotgan jamoaning mustahkam munosabatlaridan dalolat beruvchi o'choq mavjud⁴³.

Qadimgi Xorazmning keyingi bosqichi yangi «uzun uy» deb nomlangan turar joylarning paydo bo'lishi haqida tasavvur qilishga imkon beradi. Bu turar joylarda alohida juft oilalarning ko'plab mustahkam o'choqlari birinchi o'ringa ko'tariladi.

Tozabog'yop madaniyati yodgorliklarining sanasi miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida deb belgilanilishi mumkin. Agar dehqonchilik xususiyatlariga ega bo'lgan Tozabog'yop madaniyati to'g'risidagi xulosalarimiz to'g'ri bo'lsa, unda bu sana ajablanarli tarzda qadimgi Xorazm erasiga to'g'ri keladi, Al-Beruniyga ko'ra Aleksandr Makedonskiydan 980 yil

⁴³Уша асаp,66 – 68 сtp

avval boshlangan bo'lib, Xorazmda ilk yerlarni o'zlashtirilishi bilan o'zaro bog'lanadi.

Qadimgi Xorazmning asarlari bizgacha yetib kelgan yagona tarixchisi Abu Rahon Beruniy esa, yuqorida zikr qinganidek, bir-birdan 90 yil farq etadigan va har ikkisi ham yangi eradan avvalgi XIII asrga xos bo'lgan ikkita xorazmcha yil hisobini keltiradi; mamlakatning dastlabki istilo qilinishi va xorazmshohlar sulolasining asoschisi Kaykovusning o'g'li Siyovushni Xorazmga kelishi ana shu davrga to'g'ri keladi, ya'ni bu o'rinda biz ham xorazmliklar etnogenezining ikki manbai to'g'risidagi an'anaga duch kelamiz⁴⁴.

Dehqonchilik va bronza qurollarga o'tilishi va Amudaryoning quyi oqimidagi yangi etnik guruhlarining qaytadan bo'linishi xorazm qabilalarini harbiy demokratiya, juda keng qabilalarning harbiy konfederatsiyasi tashkil topishi bilan bog'liq bo'lgan, afsonaviy qahramon Siyovush to'g'risida kohinlar rivoyatlar so'lovchi bosqichga o'tishi bilan bog'liq deb taxmin qilishga barcha asoslar yetarli⁴⁵.

Arxeologik materiallar ham xalqlar o'rtasidagi rivoyatlardan keng o'rin olgan bu an'anani tasdiqlaydi.

Xorazm ibtidoiy madaniyati tarixining kaltaminor davri o'rniga kelgan davr, avvalo, yirik iqlim o'zgarishlari bilan xarakterlanadi. Bu jihatdan Jonbos-4 makonidagi cho'kma jinslarning qatlamlanishi diqqatga sazovor.

Ibtidoiy madaniyatning bizga ma'lum madaniyatlari ichida ikkinchisi bo'lgan va Tozabog'yop madaniyati deb batalgan madaniyat taxminan II ming yillikning o'rtalariga mansub bo'lib u kaltaminor madaniyatining bevosita davomidir. Bu davrga oid qisman qadimgi barxanlarda, qisman taqirlarda joylashgan makonlardan misdan ishlangan narsalarning parchalari (afsuski, bironta ham butun mis qurol topilgan emas), Kaltaminor madaniyati

⁴⁴ С. П. Толстов, По следам древнехорезмийской цивилизации. Издательство АН СССР Москва • Ленинград 1948, 82 с

⁴⁵ С.П. Толстов, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва —1948. 66 – 68 стр

traditsiyalarini davom ettiruvchi mikrolitoid chaqmoqtosh asbob-uskunalar hamda Sibir va Qozog'istonning bronza davri Andronov madaniyatini juda eslatuvchi burchakli, uch burchakli va tor burchakli ornament bosib tushirilgan idishlar topilgan⁴⁶.

Tozabog'yop makonlari atroflarida sug'orish inshootlarining yoqligi bu davrda dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslanmagan, balki <<kair yerlar>> dan, ya'ni daryo adog'idagi yer osti suvlari yuza bo'lgani sababli tuproqda dehqonchilik ekinlarining o'sishi uchun nam yetarli bo'lgan joylardan foydalanilgan, deb xulosa qilishga imkon beradi⁴⁷.

II mingyillikning o'rtalari Old Osiyoda protohind-evropa tilida so'zlashuvchi xalqlarning yodgorliklari paydo bo'lishi davri hisoblanadi.

O'rta Osiyoning bronza davri manzilgohlari orasida Xorazmdagi manzilgohlar juda yaxshi o'rganilgan hisoblanadi. Xorazmda ularning orasida Tozabog'yop madaniyati manzilgoh va qabristonlari nisbatan eng qadimgisi hisoblanadi. Ularning umumiy soni yuzdan ortiqni tashkil etadi. Umuman olganda, bu manzilgoh Amudaryo deltasining kichik irmoqlari sohillarida joylashgan. Tozabog'yop madaniyati o'z xususiyatlariga ko'ra ilk ziroatchilik madaniyatidan (Anov) bir muncha farq qiladi. Bu holat O'rta Osiyoning serhosil vodiylariga mil.avv. II ming yillik boshlarida hind-yevropa yoki hind-eroniy qabilalarning kirib kelishi bilan bog'liqdir. Bu tipdagi insonlar Ko'kcha-3 qabristoni materiallari orqali juda yaxshi o'rganilgan. Qabrlarda juft yoki toq ravishda bukchaygan holda dafn etilgan⁴⁸.

Aniqlanishicha, qabrlar ko'pgina holatlarda ikki kishiga moslab qazilgan. Avval oilaning bir a'zosini qabrga dafn etishgan, keyinchalik qabr o'rasini ikkiga bo'lib, oldin dafn etilgan inson qoldiqlarini chetga surib qo'yib, oilani boshqa a'zosini ko'mishgan. Ehtimol bunday odatlar juft oilalarning

⁴⁶ Ўша асар, 66 – 68 стр

⁴⁷ С.П. Толстов, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва —1948. 60 – 71 стр

⁴⁸ www.opentextnn.ru/history/archaeology/expedition/Tolstov/?id

mavjudligining mustahkam namunasidir. Ko'milgan insonlarning bosh tarafiga bir yoki ikkita suyuq ovqat solingan isdisherlar qo'yilgan. Qabrlarning ichida juda ko'p miqdorda spool buyumlar topilgan. Sopol idisherlar shakliga ko'ra turli-tumandir. Ko'pchilik idisherlar uchburchaksimon ingichka chiziqlar, turli-tuman bir-biriga qo'shilgan siniq chiziqlar va zigzaglar bilan bezatilgan. Bezaklarni taroqsimon qolip orqali yoki o'yib ishlangan.⁴⁹

Bronzadan ishlangan buyumlar bu yerda kamroq. Umuman olganda ularning barchasi – bronzadan yasalgan qavariq bilaguzuklar, uzun spiralsimon ziraklar bezak buyumlari tashkil etadi. Erkaklar dafn etilgan qabrlarda bronzayasalgan dan to'rt qirrali, soopi suyakdan ishlangan bigizlar aniqlangan. Insonlar to'gri burchakli 10x12 m o'lchovdagi yerto'lasimon uylarda yashashgan. Devorlar qamishlar tiqilib, loy bilan suvalgan yo'goch ustunlardan qurilgan⁵⁰.

Uyning o'rtasida xonani isitish maqsadida o'choq joylashgan. Devor atrofi bo'ylab esa, yana bir nechta o'choqlar mavjud bo'lib, bu o'choqlar taom pishirish uchun ishlatilgan. Bu o'choqlar atrofida arxeologik manbalarning asosiy qismi to'planib qolgan. Bu o'choqlar oilaviy ekanligi shubhasizdir. Bu o'choqlar atrofida alohida bir urug'ga mansub juft oilalar yashashgan bo'lib, butun turar joyni egallashgan⁵¹.

Insonlarning bosh chanoq suyagi aholining bir tipdan emasligidan dalolat beradi. Bu yerda insonlarning ikki antropologik tipi yaqqol bir-biridan ajralib turadi:

Birinchi tip insonlar – bosh suyagi yirik, bo'ylari uzun bo'lsa; ikkinchi tip – uncha katta bo'lmagan bosh suyagi, o'rta bo'yli bo'lgan. Birinchi tip vakillari srubnoy va andronov madaniyatlarining yevropoid aolisiga

⁴⁹www.sovslov.ru/tolk/kulyttura.html

⁵⁰www.sovslov.ru/tolk/kulyttura.html

⁵¹www.opentextnn.ru/history/archaeology/expedition/Tolstov/?id

yaqinlashib ketadi, ikkinchi tip esa – Hindistonning eng qadimgi aholisiga yaqin⁵².

Tozabog'yop madaniyatiga oid makonlar bilan birga, S.P.Tolstov ancha keying zamonlarga (yangi eradan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmiga) mansub bo'lgan, ammo butunlay o'zgacha material beruvchi boshqa makonlarni ham topganligini ta'kidlab; Bu yerdan ham mis parchalari topildi, biroq chaqmoqtoshdan ishlangan mayda-chuyda buyumlar mutlaqo chiqmadi. Idishlarning tagi yassi bo'lib, lekin shakli boshqacha va, eng muhimi, sirti tekis, sariq yoki qizil, ba'zan qora rangga bo'yalgan, bo'yoq ustidan jilo berilgan edi. Ba'zi spool parchalarida qizil bo'yoq ustidan berilgan qora rang izlari saqlanib qolgan. ayrim hollardagina uchraydigan, idishlarning bo'g'ziga bosma yo'l bilan tushirilgan burchak shaklidagi bezakalar Tozabog'yop bezaklarini eslatadi, ammo hashami uncha emas, balki janub bilan bo'lgan aloqalardan darak beradi, deb ma'lumotlar beradi⁵³.

Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida Xorazmda Jonbos-6, Ko'kcha-2, Bozor-2 manzilgohlari bilan mashhur bo'lgan, boshqa bir madaniyat – Suvyorgan madaniyati aholisi paydo bo'ladi. Suvyorgan madaniyati tarqalishi Xorazmda yangi bir aholi vakilllarini paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Bu esa tarixan janub bilan, to'g'rirog'i Eron yassitog'ligi hududlari bilan bog'liq hisoblanadi.

Miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlarida Suvyorgan madaniyati Tozabog'yop madaniyati aholisi bilan assimilyatsiyaga uchrab, yangi ko'nishda namoyon bo'ladi. Suvyorgan madaniyati vakillari juda keng hudularni egallagan. Ularda asosan, tagi yassi, hech qanday ornamentsiz idishlar juda ko'plab uchraydi. Idishlar juda yaxshi pishirilgan va bezatilgan. Aksariyat idishlar qizil bo'yoq bilan qoplangan. Bu madaniyatning bronza buyumlaridan

⁵²Уша жойда

⁵³С. П. Толстов, По следам древнехорезмийской цивилизации. Издательство АН СССР Москва • Ленинград 1948, 82 с

bir tomoni o'tkir pichoqlar va bronza o'roqlari uchraydi. Suvyorgan madaniyati aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan⁵⁴.

Xorazm bronza davri manzilgohlari dastlabki sug'orma dehqonchilikning vujudga kelsihi bilan o'zaro bog'liq. Davrlar o'tishi bilan sug'orma dehqonchilik rivojlana borgan. Bronza davrida sug'orish tarmoqlari dastlab daryo deltalarning tor yon tomondagi irmoqlarida joylashgan bo'lib, qadimgi ziroatchilarning kvadrat shakldagi tomorqalari ularning atroflarida joylashgan. Suv havzalaridan uzoq bo'lgan O'rta Osiyoning boshqa hududlarida aholining asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan⁵⁵.

Bronza davriga mansub bo'lgan birinchi yodgorlik hayotsiz Burgutqal'a vohasi rayonida topilgan. Bu voha orqali qadimda Paxtaarna sistemasiga kiruvchi Tozabog'yop kanali o'tgan. Shuning uchun ham bu madaniyat «Tozabog'yop madaniyati» deb yuritiladi. Tozabog'yop madaniyati texnikaning asta-sekin soddalanishi va mikrolitoid qurollar miqdorining kamayishi, yassi tubli, qo'pol va ishlanish jihatidan bir turli bo'lgan kulolchilikning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi⁵⁶.

Bu dasht zonasi kulolchiligi deb ataladigan kulolchilik bo'lib, deyarli faqat xumchalardan iboratdir. Bu kulolchilik asosan janubiy Sibirning, Qozog'istonning, Janubi – g'arbiy Evropaning dasht zonasi va Buxoro viloyatining shimoliy qismidagi yerlar uchun xosdir. U kulolchilik charxisiz yaxshi qorilmagan loydan ishlangan bo'lib, ichiga dresva va ko'pincha qum aralashgan. Tubi yassi bo'lib, uning chetlari idish devorchasining pastki qismiga nisbatan biroz chiqiqib turadi. Idishning o'giz tomoni birmuncha kengayib kelib, yumoloqlanib tamomlanadi. Bu davrda idishning sirtini yoppasiga naqsh bilan qoplash deyarli yo'qoladi. Chiziqli o'yma naqsh, doira bo'ylab chiziq bosish idishning bo'yniga va yelka qismiga solinadi. Naqsh ikkita va undan ko'proq

⁵⁴www.opentextnn.ru/history/archaeology/expedition/Tolstov/?id

⁵⁵www.sovslov.ru/tolk/kulyttura.html

⁵⁶Я.Ф. Гуломов, Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача, ЎзССР ФА нашриёти, Тошкент – 1959, 53 б

siniq chiziqlar, uch burchaklar, ba'zan yarim ochilgan yelpig'ichlar shaklida idish bo'yniga ikkita o'yma parallel chiziq bo'ylab solinadi. Bu tip kulolchilik buyumlari boshqalariga nisbatan, yomon pishirilganligi va mo'rtligi bilan ajralib turadi⁵⁷.

Bu o'rinda shu hol qiziqki, yemirilayotgan taqir qatlamlari orasida joylashgan va aniq ko'rinib turgan yassi tubli kulolchilik buyumlari topigan ba'zi bir makonlarning, masalan, 11, 12, 14, 16, 17-nomerli makonlarning kulolchiligi – idishlarning loyi, pishirishi va naqshi bilan kaltaminor kulolchiligidan butunlay farq qiladi; shu bilan birga, u yerda mikrolitoid qurollarning boy kompleksi aniq ko'rinib turadi. Ko'pincha bunday tosh qurollar bilan birga, ancha mukammal ishlangan kulolchilik buyumlari uchraydi: loy deyarli sof holda qorilgan, yaxshi pishirilgan, spool sinig'i sarg'ish-jigarrang tusda. Sirti ko'pincha to'rsimon naqsh va sxematik boshoqlar bilan bezatilgan. Xullas, bu yerda yangi dasht qabilalarining ko'chib yurishi kuzatiladi; bunday qabilalarning ba'zilarida kulolchilik hunarining yuqori darajada rivojlanganligi qayd qilinadi, boshqalarida kulolchilik buyumlari qo'pol ishlangan va ishlash texnikasi sodda; har ikkovida ham kulolchilik buyumlari bilan birga mikrolitoid qurollari uchraydi⁵⁸.

Ya.G'ulomov o'zining mazkur asarida kulolchilikning ikkinchi tipini dasht bronzasi madaniyatidan farq qilish uchun suvyorgan tip kulolchiligi deb atashni maqul ko'radi. Bu tip kulolchilik buyumlari asosan andronov tip kulolchiligiga, shuningdek Anovning II-III qatlamlariga o'xshab ketadigan bo'yalgan va yaltiratilgan kulolchilik guruhiga kiradi⁵⁹.

Bu bog'lanish faqat bronza davri madaniyatigagina xos bo'lmay, hatto kaltaminor madaniyati davridayoq boshlanadi. Bu bog'lanish Xorazmning so'nggi bronza davri madaniyatida yanada aniqroq kuzatiladi, chunki suvyorgan

⁵⁷Ўша асар, 53 б

⁵⁸Я.Г. Гуломов, Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача, ЎзССР ФА нашриёти, Тошкент – 1959, 53 б

⁵⁹Ўша асар, 53 б

kulolchiligi ichida yaltiratilgan va pushti qizil rangga bo'yalgan kulolchilik buyumlari ayniqsa ko'zga tashlanib turadi⁶⁰.

1945 va 1946 yillarda Xorazmning so'nggi bronza davriga kiruvchi makon № 6 ochilib tekshirildi. Makon o'ranshgan oxirgi ikki qatlamning strukturasi daryo loyqalariga xosdir; shurf stratigrafiyasi Suvyorgan bir vaqtlar katta daryo bo'lganligidan dalolat beradi.

Makon №6 ning madaniy qatlami kul aralashgan kulrang tusli loyqali tuproqdan iborat. Bu tuproq juda zichlashgan bo'lib, m strukturasi yo'qdir. Bu hol makonning poli yoki ish maydonchasi uchun xarakterlidir⁶¹.

Makonning yemirilgan shimoliy chekkasining o'rta qismidan boshlab, madaniy qatlamda, yoki odam yashashgan yerda qoramtir kul, spool siniqlari, sut emizuvchi hayvonlarning va qushlarning kuygan suyaklari tobora ko'proq uchraydi. O'choq atrofida juda ko'p miqdorda kul va oshxona qoldiqlari to'planib qolgan. O'choq burchaklari yumaloq shaklda ishlangan qator qazilgan ikkita to'rt burchakli chuqurchadan iborat bo'lib, chuqurligi 20 sm, diametrik 60-70 sm keladi. O'choq oldidagi madaniy qatlam qoramtir kul bilan to'lgan bo'lib, uning qalinligi 22 sm ga yetadi; o'choqdan janub tomonga uzoqlashgan sari kul kamayadi va madaniy qatlam yupqalashib, undagi kul miqdori ozayadi. O'choqdan 6 metr narida kul butunlay yo'qoladi⁶².

Makonning chegarasi topilgan narsalarga qarab emas, asosan ko'mir, spool siniqlari, kulolchilik chiqindilari bilan to'lib yotgan madaniy qatlan territoriyasiga qarab belgilandi. Kulba territoriyasida o'rnatilgan ustunlardan qolgan butun bir chuqurlar sistemasining qoldiqlari topilgan bo'lib ularning soni

⁶⁰Ўша асар, 53 б

⁶¹Я.Ф. Гуломов, Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача, ЎзССР ФА нашриёти, Тошкент – 1959, 55 б

⁶²Ўша асар, 55 б

31 ta. Bu hol bu yerda jkapa shaklida turar joy qurilganligini va uning sathi 13x15 m bo'lgaligini ko'rsatadi⁶³.

Ancha qo'pol va asosan boshqoli hamda geometric shaklli naqshlar bilan qoplangan idishlar bilan bir qatorda, bo'yalgan va yaltiratilgan idishlar ham uchraydi, ular ko'pchilikni tashkil etadi. Ayniqsa, to'q pushti qizil rangli va juda yaltiratilgan yupqa idishlar alohida ajralib turadi. Bular bu kulolchilikka munosib keladigan Anov III madaniyati yodgorliklarining xuddi o'zginasidir⁶⁴.

O'yma naqsh bilan bir vaqtda idishlarga bo'yoq berish va yaltiratishtir namunalari makon №6 da uchraydi. Bu makonda naqshli kulolchilik o'zining ko'pchilikni tashkil etuvchi o'rnini kulolchilikning bo'yab yaltiratilgan tipiga beradi⁶⁵.

Makon N6 da, agar bronzadan ishlangan qandaydir buyumlarning ikkita hech qanday tasvirni anglatmaydigan bo'lagini hisobga olmaganda, metal buyumlar mutlaqo yo'q. Ammo bu hol netallni yetarlicha ishlatilmaganligidan dalolat bermaydi, chunki bu yerda tosh suyak qurollarning yo'qligi metall dan keng qo'llanilganligini isbotlaydi⁶⁶.

Xuddi shu makonning o'zida don yanchuvchi tosh yorg'uchoqning bir bo'lagi topilgan bo'lib, bu esa unda yashovchi kishilarning dehqonchilik qilganligidan guvohlik beradi.

Ikkita o'choqning bir-biriga yonma-yon qurilsih shu jihatidan o'ziga diqqatni jalb qiladiki, ular bu davrda turarjoy qurish umumiy prinsipiga amal qilgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Turarjoy sathining kichrayishi va o'choqlar soning keskin kamayishi, hammadan avval, kaltaminorlilarning urug' tashkiloti ichida ro'y bergan o'zgarishlar haqida guvohlik beradi va ularning mayda kichik guruhlar ga yoki ayrim patriarxal oilalarga bo'linib , boshqa joyga

⁶³Ўша асар, 55 б

⁶⁴Ўша асар, 55б

⁶⁵Ўша асар, 55б

⁶⁶Ўша асар, 55б

ko'chganini ko'rsatadi. Bu hol, shubhasiz, yarim intensive dehqonchilik bilan birga poda haydab chorvachilik qilsih sharoitida yuz bergan yangi xo'jalik o'zgarishlari tufayli sodir bo'lgan⁶⁷.

Xorazmning Tozabog'yop madaniyatining tarqalgan joyi va xarakteri S.P. Tolstov⁶⁸, A. V. Zbrueva va A.N. Bernshtam⁶⁹ asarlarida ancha aniq yoritilgan. Bu mualliflarning hammasi Volga bo'yi, Kama bo'yi, Ural bo'yi, Janubiy Sibir, Qozog'iston, orol bo'yi, Kaspiy bo'yi, Toshkent va Farg'ona vohalarinig ko'pdan-ko'p bronza davri yodgorliklari sinchiklab tanishganlaridan so'ng, Tyan-Shan etaklaridan kama bo'yi va Dongacha cho'zilib ketgan bepoyon dasht zonasinig srub-andronov madaniyati turli tabiiy geografik mahalliy sharoitlarda dehqonchilik va chorvachilikka ko'chgan ko'pchilik qabila va xalqlar uchun asosan umumiy bo'lgan degan xulosaga kelgan bo'lsalar, Ya. G'ulomov ularning bu fikriga qo'shilmasdan, «kaltaminor madaniyati o'zining butun rivojlanish bosqichlarida Tozabog'yop madaniyati turiga emas, balki Suvyorgan madaniyatiga yaqin turadi. Tozabog'yop madaniyatini esa o'zining bir turdagi xumchalari va qo'pol tosh qurollari bilan eng dastlabki dehqonlar bilan bir qatorda suv toshadigan rayonlarda va to'qaylarda yashagan darbadar chorvadorlar va ovchilar madaniyatiga kiritish mumkin. Bu qabilalarning siljib yurish chegarasi juda katta bo'lishi mumkin edi» deb ta'kidlaydi.⁷⁰

Bu pragrafga xulosa o'rnida, shuni ta'kidlash lozimki, Xorazm hududidagi bronza madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishi Xorazm bronza davri manzilgohlari dastlabki sug'orma dehqonchilikning vujudga kelsihi bilan o'zaro bog'liq. Davrlar o'tishi bilan sug'orma dehqonchilik rivojlana borgan. Bronza davrida sug'orish tarmoqlari dastlab daryo deltalarning tor yon tomondagi irmoqlarida joylashgan bo'lib, qadimgi ziroatchilarning kvadrat shakldagi tomorqalari ularning atroflarida joylashgan. Suv havzalaridan uzoq bo'lgan

⁶⁷Ўша асар, 55б

⁶⁸ С.П. Толстов, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва —1948.60 – 71 стр

⁶⁹Я.Ф. Гуломов,Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача, ЎзССР ФА нашриёти, Тошкент – 1959, 55-бет

⁷⁰Ўша асар, 55б

O'rta Osiyoning boshqa hududlarida aholining asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan.

2-bob. Xorazm mintaqasida temir davri manzilgohlarining vujudga kelishi va rivojlanishi

2.1 Xorazm mintaqasida ilk temir davri va Amirobod madaniyati tafsilotlari

Taqir usti madaniyati o'zi ga xos jihatlari belgilari bilan unga muvofiq bo'lgan Tozabog'yop va Suvyorgan madaniyatlaridan farq qiladi. Idishlar sirtiga ishlangan chizma va o'yma naqshlar o'ining soddaligi jihatidan Anov III oxiri va Anov IV madaniyatining shu tipdagi sopol idishlariga juda ham o'xshaydi. Idishga asosan boshoqsimon naqsh berilgan, devorchalari yumaloq-qabariq, tubi faqat yassi qilib ishlangan. Shu bilan birga idish tubining chetlari Tozabog'yop madaniyati idishlariga qaraganda tashqariga ko'proq chiqib turadi. Bular bilan bir vaqtda og'iz tomoni to'g'ri va past qilib ishlangan yoki tashqari tomonga, keskin qayirilgan idishlar ham uchraydi. Umuman, bu davrda ilk qadimgi Xorazm idishlarining prototiplari yaratildi⁷¹.

⁷¹Я.Ф. Гуломов , Хоразм сугорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача) ЎзССР ФА нашриёти. Тошкент – 1959 , 69 бет

Bu madaniyat qadimgi sug'orilgan yerlarning barcha territoriyasida tarqalgan bo'lib, Amirobod madaniyati deb ataladi⁷².

Jonbosqal'adan janubi-sharq tomonda Amirobod madaniyati yodgorliklari taqirsimon allyuvial soz tuproqlar ustida keng doira bo'ylab tarqalgandir⁷³.

Amirobod madaniyati yodgorliklarini o'rganish natijasida uning so'nggi bronza davridan boshlab, to sun'iy kanallar barpo etilish davrigacha rivojlanishini kuzatishimiz mumkin.

Bu davrda, ya'ni ilk temir davrida Xorazmning ibtidoiy dehqonlari turmushida, aftidan, katta ijtimoiy-iqtisodiy o'garishlar yuz bergan bo'lsa kerak: yangi Amirobod madaniyatining namoyondalari qadimgi sug'oriladigan yerlarning deyarlik hammasiga va chap sohil Xorazm hududining janubi-g'arbiy qismiga joylashadilar. Garchi qishloqlar Suvyorgan, Dovdon bo'ylaridagi toshqin suvlari bosadigan tumanlarda va uzun «uylar» bo'yidagi pastlik joylarda joylashgan bo'lsa ham, ammo bu vaqtda aholi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanar edi. Shuning uchun ham suv rejimining o'garuvchanligi endi dehqonchilik jamoasi a'zolarini suv yoqasi bo'ylab goh yuqoriga, goh pastga ko'chib yurishga majbur qilolmas edi⁷⁴.

Qadimgi bosh kanallarning deyarlik hamma asosiy o'zanlari mana shu uzun «uylar»ga yonam-yon joylashgan. Bosh kanallarning saqlanib qolgan qirg'oq ko'tarmalarida Amirobod madaniyati yodgorliklarining tipik namunalari topilgan.

Eramizdan avvalgi I ming yillikdan boshlab, Amirobod madaniyati bu davrning ijtimoiy turmushidagi o'garishlar bilan bir vaqtda keng taraqqiy qilgan. Bu o'zgarishlarning mohiyatini hozircha aniqlab bo'lmayotir. Ammo bu

⁷²С.П. Толстов, Древний Хорезм, 68 – 70- бетлар

⁷³Я.Ф. Гуломов, Хоразм сугорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача) ЎзССР ФА нашриёти. Тошкент – 1959, 69 бет

⁷⁴Я.Ф. Гуломов, Хоразм сугорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача) ЎзССР ФА нашриёти. Тошкент – 1959, 69 бет

massaget qabilalari ittifoqi hukmron davri bo'lganligi, bu vaqtda Oks-Yaksart havzasi etaklarida yashagan sak qabilalari ichida tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turganligi aniqlangan⁷⁵.

A.I. Terenojkin tomonidan 1937 yilda Burgutqal'a taqirlarida topilgan Amirobod tipidagi bir necha idishsha davrga taalluqlidir. Bu idishlar, Terenojkinning fikricha, kulolchilik charxisiz hech narsa aralashmagan loydan ishlangan va olovda pishirilgan⁷⁶.

S.P. Tolstov bu idishlar bilan Sharqiy Evropaning ilk skiflari kulolchiligi o'rtasida yaqin o'xshashlik bor deb ko'rsatadi⁷⁷.

Jonbosqal'a va Xorazmning bronza davrini o'rganish insonlarni o'rab turgan keyingi tarixiy muhit to'g'risida muhokama qilishga imkon yaratadi. Aftidan, bronza davrining oxirlariga kelib, miloddan avvalgi I ming yillikning boshlanish arafasida Xorazmdagi avval Janubiy-Sulton Uvays tog' tabiiy suv havzalari qirg'oqlaridagi yuqori nuqtalariga nisbatan joylashgan makonlar suv bosib, botqoqlikka aylanadi. Ularning ostida taqir bo'ztuproq ajralib qolgan.

Agar Xorazmning eng so'nggi «taqir usti» madaniyati bo'lmish, tozabog'yop madaniyatining oxiridan sanalashtirishdan kelib chiqsak, Amudaryo suvlarining bu ko'tarilishi miloddan avvalgi II va I ming yilliklar chegarasiga borib taqalib, sharqiy-evropa tekisligining subboreal bosqichining oxirgi davriga judan ham yaqin keladi⁷⁸.

Aynan shu bilan qadimgi Xorazmning uchinchi madaniyati – Amirobod madaniyatining joylashuvi bog'liq shart-sharoitlari muhimdir. Bu davrning yodgorliklari avvalo Burgutqal'aning g'arbiy chekkalari taqirlarida va Teshikqal'adan janubiy-g'arbiy tomondagi taqirlardan topilgan. 1939 yilda bu

⁷⁵ Ўша асар, 69 бет

⁷⁶ А.И. Тереножкин. О древнем гончарстве в Хорезме. Уз ФАН СССР Ахбороти, 1940, N 6, 1 табл., 1 – 2-фиг.

⁷⁷ С.П. Толстов, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва —1948, 68 – 70- стр

⁷⁸ Ўша асар, 68 – 70- стр

madaniyat tipidagi kulolchilikning ko'p miqdorda namunalari Jonbosqal'adan № 10 10-15 km shimoli-sharq taqirlari ustida topilgan⁷⁹.

Bu davr uchun ko'p miqdorda dresva aralashgan qo'pol, ba'zida juda keng, qora yoki qora-kulrang yuzaga ega bo'lgan, tubi yassi, doira- bo'rtib turgan devorli idishlar xarakterli hisoblanadi. Idishlar agar naqsh bilan bezatilgan bo'lsa, faqat burchak tomonlardangina⁸⁰.

Idishning bosh qismidagi aylana shaklidagi « qoraqarag'ay naqshi» juda ko'p uchrab turadi

S.P. Tolstov bu madaniyat tipidagi kulolchilik namunasiga o'xshashlikni Shimoliy Kavkazdagi A.A. miller tomonidan ta'riflangan «skiflargacha bo'lgan», qisman Kobayakov shaharchasi kulolchiligida ko'radi⁸¹.

Amirobod va Kobayakov madaniyatlarining o'xshashligi shunisi bilan qiziqki, Kuban bo'yi hududining qadimgi aholisini Orol bo'yida istiqomat qiluvchi massaget qabilalari bilan aloqa bo'lganligi to'g'risida tamin qilishga barcha asoslar yetarlidir. Xitoy manbalari eramizning arafasida aorlar – alanlar massagetlarning shimoliy qo'shnisi bo'lganligi va shimoliy Ustyurt va Orol dengizidan shimoldagi hududlarni egallaganligi haqida gapirishga imkon beradi.aaa.⁸²

Al-Beruniyning bergan ma'lumotiga ko'ra, qadimda alanlar Xorazm bilan qohni hududlarda yashab kelganlar. S.P. Tolstov Xorazmda alanlar toponimikasi bilan bog'liq belgilarga G.I. Karpovdan so'ng duch kelganligini ta'kidlab (Ustyurtning janubiy-sharqiy chegaralarida joylashgan Alanqal'a), Amudaryoning o'rta oqimidagi turkman qabilalari ichida o'larini alanlar deb ataydiganlar bor ekanligiga urg'u beradi⁸³.

⁷⁹Ўша асар, 68 – 70- сгр

⁸⁰Ўша асар, 68 – 70- сгр

⁸¹Ўша асар, 68 – 70- сгр

⁸²Ўша асар, 68 – 70- сгр

⁸³Ўша асар, 68 – 70- сгр

Amirobod kulolchiligida massaget qabilalarining madaniyati izlari borligini taxmin qilish mumkin. Bu holatda ularning shimoliy-kavkazning «skiflarga» bo'lgan madaniyatga yaqinligi alan-massaget qabilalarining genealogik aloqalariga ta'sir ko'rsatgan Orolbo'yi va Azovbo'yining qadimgi aloqalari bo'lganligini tasdiqlaydi.

Bu esa qadimgi Xorazmliklarning glottogenez jarayoni sharoitlarini aniqlab beradi.

1940 yilda Tolstov rahbarligidagi ekspeditsiya davomida Norinjondan shimoli-sharqda xaroba hududlardagi taqirlarda juda ko'plab miqdorda Amirobod madaniyati manzilgohlari ochib o'ganilib, Qo'sh-porson va Yakka-porson xarobalari orasidagi nurab ketgan joylarda, o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi bu davrga nisbatan juda katta qiziqish uyg'otadi. Jonbosqal'a tepaligining pastligidan shimoliy tomonidan janubiy tomonga uzunasiga bir necha Jonbosqal'a № 4 makonidan bir necha kilometrgacha makonlarning keng doira bo'ylab yoyilganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari Bozorqal'adan janubiy tomondagi katta kanal hududidan o'shshash materiallar topilgan⁸⁴.

Ya. G'ulomov tomonidan ochilgan Jonbosqal'a № 7 manzilgohi ayniqsa qiziqish uyg'otib, bu davrning turar joylari planirovkasi juda yaxshi ko'rinadi (7 rasm)⁸⁵.

Tadqiqotchilar tomonidan miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga xos bo'lgan bu davrlarda to'g'riburchakli, sopol inshootlari ustunlik qiladi, lekin hali ham umumiy turar joylar xususiyati saqlanib qolganligi ko'rsatib o'tilgan. Jonbosqal'a № 7 dagi parallel ravishda tepalikning qiyasi bo'ylab g'arbdan sharqqa tomon cho'zilgan «Katta uy», yuqorida ta'kidlab o'tilgan janub tomondan o'trab turuvchi nishablik, xuddi Jonbosqal'a № 4 dagi uylar kabi qumtepalarda joylashgan. Uning uzunligi 77 metr bo'lib, kengligi 20 metrni tashkil etadi.

⁸⁴Ўша асар, 68 – 70- стр

⁸⁵Я.Ф. Гуломов , Хоразм сугорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача) ЎзССР ФА нашриёти. Тошкент – 1959 , 69 бет

Uy bo'lingan bo'lib, uning chekkasidan ichki devor bo'ylab, birining kengligi 10, boshqasini 5 metrni tashkil etadigan ikkita paralell yo'laksimon inshootlar joylashgan.

Bu tipdagi katta uylar 1939 yilda S.P. Tolstov rahbarligida Chirmonyopda ochilgan, xususan qadimgi antik shaharlar - «odamlar yashaydigan shahar» (городищами с жилыми стенами) - Ko'zaliqir va Qal'aliqirga genetik bog'lanib, ahamoniylar releflarida va bundan tashqari Anov III deb nomlanuvchi madaniyat kulolchiligining ayrim shakllarida tasvirlangan, ko'p jihatdan ahamoniylar davrining metalli idishlarni yodga soluvchi, yuqori qismi gorizontal qo'l charxida ishlangan idishlarning shkalini xususiyatlariga ko'ra va shaharchadakulolchilik buyumlari bilan bir qatorda avvalgi davrga xos bo'lgan, skiflarning o'qlarining topilishi ularni ahamoniylar davri: miloddan avvalgi V – IV asrlar, balki VI – IV asrlar deb sanalashtirishimizga dalil bo'la oladi.³⁸ Shunisi qiziqki, Norinjon yaqinidagi amirobod madaniyati makonlarida S.P. Tolstov va Ya. G'ulomovning birgalikdagi olib borgan izlanishlarida, bir qator so'nggi amirobod kulolchiligi bilan bir qatorda «odamlar yashaydigan shahar» (городищами с жилыми стенами) madaniyati idishlari ham aniqlanib, o'rganildi⁸⁶.

Bu esa bevosita amirobod madaniyatidanda rivojlanishi yuqoriroq bo'lgan «odamlar yashaydigan shahar» («городищ с жилыми стенами») madaniyatiga o'tish bo'lib, o'z navbatida kulolchiligining shakli jihatidan «qang'yuy madaniyati» miloddan avvalgi IV – I asrlar kulolchiligiga bog'lanadi⁸⁷.

Bu pragrada xulosa qilib, Xorazm ibtidoiy madaniyatining ilk temir davrinnig o'rni va amirobod madaniyatlari tafsilotlari bayon qilib o'tildi. Aynan mana shu davr orqali keyinchalik «городищ с жилыми стенами» (Ko'zaliqir) madaniyatiga, ya'ni temir davri shaharsozlik madaniyatiga o'tish boshlanadi.

⁸⁶ С.П. Толстов, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва —1948, 68 – 70- стр

⁸⁷ Ўша асар, 68 – 70- стр

2.2 Temir davrida Xorazm mintaqasi shaharsozlik madaniyati

Ko'zaliqir (Yetimqir) – Xorazm hududidagi eng qadimgi arxeologik yodgorlik bo'lib, Toshhovuzdan 60 km g'arbda joylashgan. Maydoni 25 ga bo'lgan istehkomli <<protoshahar>> qoldilarini o'zida aks ettirib, avvalo tepalikning janubi-g'arbiy qismini egallagan. Keyinchalik devorning shimoliy va sharqiy qismidan ilk aholi vakillari tomonidan yana 13 ga hudud o'zlashtirilgan hisoblanadi. Shaharchani ikkita parallel devorlar o'rab turgan bo'lib, ular orasidagi yo'lakning kengligi 2,5 metrni tashqil etgan. Devorlar xom gi'sht va paxsadan terilgan bo'lib, 1-1,5 metr qalinlikka yetgan. Tashqi mudofaa devorida 2 metr oraliqda juda ko'p miqdorda tor shinaklar, har bir 35 metrda esa – oval yoki to'g'riburchak shaklidagi burjlar mavjud. Uchta darvozaning o'rni aniqlangan. Yo'qori qal'ada asosiy o'rinni bir nechta tartibsiz me'moriy komplekslar egallagan bo'lib, tadqiqotchilar uni mahalliy qabila ittifoqlarining diniy va xo'jalik markazini o'zida aks ettirgan qasr deb hisoblaydilar⁸⁸.

Ko'zaliqirning kulolchilik idishlari oyoq va qo'l bilan ishlatiladigan kulochilik charxi yordamida yasalgan, metallni qayta ishlash juda yo'qori darajaga yetgan. Bronzadan o'qlarning uchlari, ot abzali qismlari, ayollar taqinchoqlar va b. quyilardi. Aholining dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lib, ammo ularning asosiy mashg'loti hali ham yaylov uy chorvachiligi hisoblanardi. Ko'zaliqirning arxeologik manbalari So'gd, Marg'iyona va Janubiy Baktriyaning komplekslari bilan bir qatorda yagona, yirik etnomadaniy mintaqaning bir turdagi madaniy qatlamni o'zida aks ettirganligi shubhasizdir.

Qal'aliqir 1 (Ayritom) – Toshhovuzdan 40 km janubi-g'arbda joylashgan mil.avv.V-IV asrlarga xos bo'lgan shahar harobasi bo'lib, Daudan daryosining qadimgi irmog'ining janubiy qirg'ogida, deyarli Kunyauaz

⁸⁸С.П. Толстов, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва —1948, 77 - 83 стр

shahrchasi yaqinida joylashgan. Qadimgi Xorazm vohasidagi maydoni jihatidan eng yirik manzilgoh (700x1000 m). Uning to'g'riburchakli maydoni hozirgi kunda qumliklar bilan o'ralgan. Qal'aning minoralar bilan mustahkamlangan devorlari, mustahkam mudofaa inshootlari labirintlar va bastionlar bilan himoya qilingan to'rtta darvoza bo'lgan. Shahar aholisining hayoti butun hududni egallagan, uzun, keng va baland devorlar bilan o'ralgan, tomlari gumbazsimon yo'laksimon uylarda kechirgan⁸⁹.

G'arbiy devorning ichki qismida ikkita tashqi va ikkita ichki hovliga ega bo'lgan, ulkan qasr (qasr rejasi 80x80 m) qad ko'targan. Hovlilarning perimetrlari bo'ylab 30 ga yaqin turli xonalar joylashgan. Qasrning zallari kolonnalar ko'tarib turgan yassi tomga ega bo'lib, kolonnalarning asosi qisman saqlanib qolgan. Bu bino xuddi devorlar kabi qurilishi to'liq tugallanmagan, chunki shaharcha aholi tomonidan tark etilgandir. Ahamoniylarning Xorazmda hukmronlik davrlarida paydo bo'lgan qal'a, ularga Janubiy Daudanning yirik su'gorish tizimlarini o'z qo'llarida tutib turish uchun kerak bo'lgan.

Qang'ha-qal'a – Sariqhamish ko'li yaqinida, Qang'haqir yonbag'rida, Toshhovuzdan 150 km shimoli-sharqda joylashgan qal'a. Uning yaqinidan Qangha daryosining qadimgi irmog'i oqib o'tgan bo'lib, bu irmoq Janubiy Daudanning quyi oqimiga tarkibiga kirgan. Bu qal'a ming yil davomida: miloddan avvalgi V asrdan milodiy IV asrgacha mavjud bo'lgan. Tarxi to'g'riburchakli (233x200m). Qal'a hududida mustahkam turar joy inшоati aniqlangan. Devorlar xom g'ishtdan ko'tarilgan, unda devor ichki tor yo'lak (o'q otish galereyasi) bor, tashqi tomondan esa, to'g'riburchakli minoralar tutashgan. Janubi-g'arbiy devorda murakkab mudofaa qurilmalari mavjud. Ayrim joylarda uzunligi 35 metrli xandaqning o'rni ko'rinib turadi. Qal'a harbiy harakatlar natijasida tanazzulga yo'z tutgan: yo'qori qatlam bo'ylab olov izlari tarqalgan, Qang'haqal'aning daryo tomondan sharqiy burchak yaqinida

⁸⁹Уша асар, 77 - 83 сар

devorda yirik yoriq ko'zga tashlanadi. Albatta bu yerdan dushman kirib kelgan deb xulosa qilish mumkin⁹⁰.

Qang'ha 2 – Xorazmning so'l qimidagi ilk temir davriga xos (mil.avv. IX-V asrlar) ko'hna arxeologik manzilgoh, Toshhovuzdan 150 km janubi-g'arbda joylashgan.Hozigi kungacha 9 metrli devor saqlanib qolgan.

Qal'a hududida (4 ga yaqin) kulolchilik bo'yo'mlari, baliqchilikning tosh va suyakdan ishlangan qurollari topilgan. Sopol bo'yo'mlarning ko'mir bilan kuyib ketgan qoldiqlari miloddan avvalgi VI-V asrlarda Qang'ha 2 da ro'y bergan halokatdan dalolat berib, shundan so'ng bu yerda hayot qayta tiklanmagan.

Qirqmulla – 3 gektar maydonni egallagan 12 metrlikdagi tepalik Ko'hna Urgenchdagi Takash maqbarasidan 200 metr shimoli-sharqda joylashgan. Tepalikning g'arbiy qanoti qazib o'rganilishi natijasida xom g'ishtdan qurilgan yirik mudofaa devorini va kvadrat tarxdagi uchta minorani ochilishiga zamin yaratdi. Bu yerdan topilgan sopol idishlarning dastlabki namunalarining sanasi miloddan avvalgi V asrga to'g'ri keladi⁹¹.

Quyisoy 2- Xorazmda ilk temir davriga xos bo'lgan (mil.avv. VII-VI asrlar) arxeologik manzilgoh, Shohsanam qal'asidan 13 km shimoli-sharqda joylashgan.Ikki daryoning ayrilish yerida joylashgan.12 gektar maydonni egallagan.Shaharchadan topilgan o'ziga xos keramik materiallar tadqiqotchilarni Xorazmni so'l qismida alohida quyisoy madaniyatini ajratib ko'rsatishga imkoniyat yaratdi⁹².

Ayozqal'a-1 shahristoni.Yodgorlik o'lchamlari 182,5 x152 m bo'lib, to'g'ri burchak shaklida, olam taraflariga qaratib qurilgan. Qo'shdevor zarang

⁹⁰http://www.culture.gov.tm/Keneurgenc/Keneurgenc_eng.html

⁹¹http://www.culture.gov.tm/Keneurgenc/Keneurgenc_eng.html

⁹²http://www.culture.gov.tm/Keneurgenc/Keneurgenc_eng.html

qatlam (materik) ustiga ko'tarilgan va ayrim joylarda 10 m dan ziyod balandlikda saqlanib qolgan. Tashqi devornning qalinligi asosida 2,4 m, ichki devorniki – 1,7 – 2,1 m.

Kirish joyi qal'aning janubiy devorida bo'lib, sharqiy devorda o'tish joyi bo'lgan to'g'ri burchak shaklidagi peshdarvoza inshooti bilan himoyalangan. Peshdarvoza inshootiga kirish joyi bir - biridan 4,4 m masofada joylashgan to'g'ri burchak shaklidagi ikki burj bilan mustahkamlangan.

Istehkom sharqiy va g'arbiy devorlarda bir-biridan 13,8 m masofada, shimoliy devorda esa 11,5 m masofada joylashgan yarim ellips shaklidagi burjlar bilan kuchaytirilgan. Qal'aning to'rttala burchagida burjlar ayri «qaldirg'ochdumi» shaklida joylashgan. Hamma burjlar devor yuzasiga tirab qurilgan.

Gumbazli berk yo'lak ustidagi devor yo'qorisida bir-biridan o'rtacha 1,5 m masofada nayzasimon shinaklar qo'yilgan.

1965 va 1968 yillarda shimoliy devordagi (shimoli-sharqiy burchakdan hisoblaganda) uchinchi-oltinchi burjlar yaqinida, g'arbiy devordagi janubi g'arbiy burjlar yonida, peshdarvoza va janubiy devordagi ikki burj yonida qurilish uchun taxlab qo'yilgan ko'p miqdordagi g'ishtlar topildi.

Peshdarvoza inshootiga kirish joyining shimoliy tomonida, o'tish joyiga urilgan devor suvog'ida bir qatorda uch belgi va uning ustida bir belgi qo'yilgan. Belgilar loyga 2—3 mm chuqurliqqa tig' bilan tilib bitilgan. Yozuv ustidagi belgini V.A. Livshits «ustaning», qurilish boshlig'ining tamg'asi, deb hisoblashga moyil. Tamg'a xorazmcha «yumshoq», «muloyim», «lozim darajada qattiq emas», «mustaqil emas», deb o'qiladi.

Yozuv, aftidan, darvoza devori ichidagi «yetarlicha mustahkam qurilmagan», shuning uchun qurilish paytidayoq urib hborilgan gumbazli

xonaga taalluqli bo'lsa kerak. «Usta» bajarilgan ishdan mamnun bo'lmagan bo'lsa kerak shuning uchun ish tugagach, unga belgi qo'ygan.

Qal'a markazida, hovlida 5 m chuqurlikdagi o'ra mavjud. Bu yerda, ehtimol, quduq bo'lgan. Qal'a mil.avv. IV—III asrlarda qurilgan deb hisoblanadi. Basharti shunday bo'lsa, yozuv istehkom qurilgan davrga oid bo'ladi. Mil. avv. IV—II asrlarga oid jez paykon, mil.avv. IV—III asrlarga taalluqli terib olingan sopol parchalari qal'ani mil.avv. IV—III asrlarga oid deb hisoblash imkonini beradi⁹³.

Ayozqal'a-3. Qoraqalpogiston Respublikasi Ellikqal'a tumani hududida joylashgan. Shakli parallelogrammga o'xshash, maydoni 4 gektar (260 x 180 m) ga yaqin. Tomonlari olam taraflariga qaragan. Yodgorlikning ichki devorlarida, shunda ham ayrim joylarda asos (sokol) ustida xom g'isht (40-42 x 40-42 x 11 sm) taxlamlari saqlanib qolgan. Paxsa asos sun'iy qum «yostiqlar» ustiga qo'yilgan. Yostiqlar balandligi 15—20 sm. Tashqi devor qalinligi asosda 3,20 m, ichki devorniki 2,10 m, yo'lakning eni 2,70 m. Qal'a devori butun perimetri bo'yicha to'g'riburchak shakldagi burjlar bilan mustahkamlangan. Burjlarning eni 8—9 m bo'lib, ular har 21—22 m da joylashgan. Qal'a burchaklarida tarxi kvadrat shaklda, o'lchami 11x11 m bo'lgan burjlar joy olgan. Shahristonga kirish yo'li janubiy devor o'rtasida bo'lib, 13x13 m o'lchamdagi peshdarvoza istehkom bilan himoyalangan. Adashtirma yo'lga kirish joyi undan 9 m janubda joylashgan bir devoriy burj bilan kuchaytirilgan.

Qal'aning ichki maydoniga hech narsa qurilmagan. Shimoli - sharqiy burchakka yaqin joydagina, shimoliy devor yonida o'lchami 49 x 59 m bo'lgan, tarxi to'g'ri burchak shaklidagi mustahkamlangan bino qoldig'i bor. U g'arb - sharq yo'nalishida yastangan, markazidan yo'lak bilan xochsimon shaklda deyarli bir xilda to'rt qismga bo'lingan. Bino uch tomondan yo'lakli, o'rtasida tarxi to'g'riburchak shakldagi burj bo'lgan devor bilan o'rab olingan, shimol

⁹³Маньолов Ю. П., Ходжаниязов Г. Аяз кала 1 и Бурлы кала. (К изучению Хорезмской фортификации). // Археологические исследования в Каракалпакии. Ташкент, <<ФАН>>. 1981.

tomonda esa shahriston devoriga taqalgan. Tashqi devor qalinligi 1,65 m, ichkisini — 1,50 m, yo'lakning eni 1,90 m. Burjlar tashqariga 3,70 m turtib chiqqan, eni 5,35 m, xona kvadrat shaklda, o'lchami 2x2 m.

1939 yilda S.P. Tolstov tomonidan binoda olib borilgan tadqiqotlar uning asosi o'ziga xos strukturaga egaligini aniqlash vakushonlar davriga oid, deb hisoblash imkonini berdi⁹⁴. Qo'lga kiritilgan yangi materiallarga asoslanib, Ayozaqal'a-3 ning, eng avvalo, burchakdagi binoning barpo etilish davrini mil.avv. V—IV asrlarga yoki IV asrga taalluqli, deb hisoblash mumkin. Aks holda shahriston shimoliy devori to'g'ri chizig'ining siljishi va binoning unga taqalishi sababini hamda kech arxaik davrga oid va Qang'ha sopollari unga qayerdan tushib qolganini izohlash mushkul bo'ladi⁹⁵. Statsionar arxeologik qazishlar davrida ham binoning sanasini shunday belgilash o'z tasdig'ini topdi⁹⁶.

Katta Aybo'yirqal'a. Shumanay qishlog'idan 41 km shimoli - g'arbda, Ustyort platosi jarligi yonbag'rida joylashgan. Shahriston maydoni 10 gektarga yaqin, tarxi noto'g'ri to'rtburchak shaklida, sharqdan g'arbga qarab cho'zilgan. Uch tomonidagi devor saqlanib qolgan. Sharqiy devorning uzunligi— 120 m, shimoliy devor — 412 m, g'arbiy devor — 260 m. Qal'aning jarlikka taqaladigan janub tomonida g'isht terilgan joylar uchraydi, u qal'a devoridan ko'ra ko'proq to'siqqa o'xshaydi. Proteyxizma va eni 3 m bo'lgan devor yoki xandaq sezilib turadi (Mambetullaev, 1978; 1990). Shahristonga kirish yo'li shimoli – g'arbiy burchakdan janubda, Qal'aning g'arbiy devori o'rtasida joylashgan, peshdarvoza inshooti bilan himoyalangan. Yodgorlik xronologiyasi va stratigrafiyasi bo'yicha asosiy ma'lumotlar 1 - qazishmada olingan va mil. avv. V—IV, IV—III, mil.I— III asrlarga oid, deb.⁹⁷

⁹⁴ С.П. Толстов, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва —1948, 107- стр

⁹⁵ Ходжаниязов Г. Новые данные об оборонительных сооружениях Аяз калы 3. // ВКФ АН РУз. N 4. Нукус, 1987, 102-105 стр.

⁹⁶ Ходжаниязов Г. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. (Мил.авв. VIасрдан – мил.одий IV асргача). Тошкент, <<Ўзбекистон>>, 2007, 41 – 51 б.

⁹⁷ Ўша асар, 41 – 51 б.

Qazish ishlari natijasida Katta Aybo'yirqal'a darvozasi stratigrafiyasi hamda konstruktsiyasi aniqlandi. Adashtirma yo'l mavjud bo'lgan vaqtni qal'a devoriga nisbatan sinxron ravishda quyidagi davrlarga bo'lamiz.

Birinchi qurilish davrida qal'a devori ko'tarilgan, uning qalinligi asosida 6,50—8,40 m ga yetadi. Paxsa asosga xom g'isht terilgan. Burjlar bo'lmagani uchun yon tomondan shinaklar yordamida himoya qilingan. Shahriston perimetri bo'yicha uch tomondan asosiy devordan 1,30—3,90 m masofada qochib turadigan proteyxizma bilan o'rab olingan. Istehkomga kirish joyi yaqinida devor asosining qalinligi 7 m ga yetadi va tepaga qarab torayib borib, 3 m balandlikka 5,30 m ga tenglashadi. Darvozaning eni 3,20 m. Tarxi to'g'riburchak shaklida bo'lgan peshdarvoza adashtirma yo'lining o'lchami 17x23 m. qalinligi 1,80 m bo'lgan devor aralash usulda ko'tarilgan: quyida uch qator xom g'isht (40x40x 10 sm), so'ng qatorining balandligi 0,60—0,70 m bo'lgan paxsa urilgan. Devor oldi xandaq va proteyxizma peshdarvoza inshootini aylanib o'tgan, ularning janubiy qismi saqlanib qolmagan. Adashtirma yo'l devoridan 4 m masofada xom g'ishtdan (40 x 40 x 10 sm) ko'tarilgan proteyxizma 0,40— 0,50 m balandlikka saqlanib qolgan, qalinligi 0,90 m. Shahriston mavjud bo'lgan keyingi bosqichda ham qudratli istehkom - qal'aligicha qolgan. Bu davrda ham adashtirma yo'lga avvalgidek kirilgan. Tarxdagi yagona o'zgarish — tosh terilgani hisobiga adashtirma yo'l devori qalinlashgan. Uchinchi davrda shahar devori tashqi tomondan xom g'isht bilan o'ralgan, avvalgi devor ta'mirlangan. Shahar darvozasi rekonstruksiya qilingan, otish yo'lagi bo'lgan yangi adashtirma yo'l (30x27 m) qurilgan. Tashqi devorning qalinligi 3 m, ichkisiniki — 2,50 m, yo'laklar eni — 3 m. Peshdarvoza inshootini kazish davomida qo'lga kiritilgan topilmalarning asosiy qismi shahristonning antik qurilish davrlariga, ya'ni mil. avv. V—IV, IV—III va mil. I—III asrlarga muvofiq keladigan sopollardan iborat⁹⁸.

⁹⁸ Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. (Мил.авв. Vасрдан – милодий IV асргача). Тошкент, <<Ўзбекистон>>, 2007, 41 – 51 б.

Birinchi davr peshdarvoza adashtirma yo'li tarx - arxitektura yechimiga ko'ra aniq o'ylab bajarilgan to'g'riburchak shaklidir. Qazish chog'ida aniqlangan mudofaa inshootlari elementlari bu adashtirma yo'l ilk antik davrdagi Janubiy Xorazm yodgorliklarining ilgari o'rganilgan peshdarvoza adashtirma yo'llariga ko'p jihatdan o'xshashligidan dalolat beradi. Shunga qaramay, Katta Aybo'yirqal'aning birinchi davridagi peshdarvoza inshootlari qurilish texnikasida ayrim farqli jihatlar borligi ko'rinadi. Uning eng muhim xususiyatlaridan biri — antik Xorazm harbiy istehkomlarining eng muhim elementi bo'lgan otish yo'lagining yo'qaligi. Biroq keyingi bosqichlarda bu bo'shliq to'ldirilgan⁹⁹.

Kichiq Qirqqizqal'a Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellik-qal'a tumanidagi Buxan Merey shirkat xo'jaligi yerlarida joylashgan. Qal'a istehkomi har xil tarxga ega bo'lgan, bir-biriga yondashgan ikki — g'arbiy va sharqiy qismdan iborat bo'lgan. G'arbiy qism sharqdan g'apbga qarab cho'zilgan, bo'yi 80 m, eni 70 m bo'lgan noto'g'ri doira shakliga ega. Doira 38-40 x 38-40 x 10-12 sm o'lchamli xom g'ishtdan ko'tarilgan qo'shdevor bilan o'rab olingan. Tashqi devorning eni (ikkinchi qator shinaklar balandligida) 1,60 m, ichkisini—1,40 m, yo'lakniki— 2 m. Tashqi devor asosga tomon 78—80° nishab¹⁰⁰.

Qal'aning tashqi devoridan butun perimetri bo'ylab ikki qator nayzasimon shinaklar qo'yilgan. Shinaklarning o'qi va ularning qatorlaridagi oralig'i bir-biriga mos kelmaydi. Pastki qatordagi shinaklar orasidagi masofa— 1,25—1,30 m, yuqori qatordagilari orasi esa 1,90—2 m. Birinchi qator shinaklar poddan 0,80 m balandlikda joylashgan. Ularning eni 20—24 sm, kirish tuynugi balandligi 50 sm, chiqishini—1,45—1,50 m. Shinaklar somonsuvoq qilingan. Kirish joyi shahriston ichida sharqiy tomonda, devor chizig'idan ancha

⁹⁹ Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. (Мил.авв. VIасрдан — милодий IV асргача). Тошкент, <<Ўзбекистон>>, 2007, 41 – 51 б.

¹⁰⁰ Ўша асар, 41 – 51 б.

ichkarida, 10 m ga yaqin yo'lak hosil qilgan holda joylashgan. Devorida bir-biridan 1,25—1,35 m masofada shinaklar joylashgan¹⁰¹.

Qal'aning sharqiy qismi oval qismiga (56x50x120 m) taqalgan segmentdan iborat bo'lgan. Devor asosan yuvilib ketgan, ba'zi joylarda tagigacha yuvilib ketgan g'ov holiga kelib qolgan. Devorning qalinligi 3 m ga yaqin, paxsadan urilgan. Qal'a burchaklarida va qal'a janubiy devorining o'rtasida joylashgan tashqi darvozalar yonida, uning oval va segment qismlari bir-biriga yaqinlashgan joyda burjlar qurilgan. Burj 7 m ga yaqin balandlikda saqlanib qolgan, xonalari yo'q; u tuproq uyumi bo'lgan, baland paxsa asosdan iborat bo'lgan (1 m ga yaqin balandlikda saqlanib qolgan)¹⁰².

Kirish yo'li konstruksiyasi bu yerda ham o'ziga xos yechimda bajarilgan. Uning janubiy devori, oval qismiga 8,50 m yetmasdan, o'tmas-burchak tarzida shimolga buriladi va 9 m uzunlikda, eni 8,50 m li kirish yo'lini hosil qilgan holda ko'zga tashlanib turadi. Shahristonga uzunligi 50—60 m, eni 3—4 m bo'lgan do'nglikning janubiy yonbag'rida joylashgan tabiiy pandus orqali kirilgan.

Bevosita yo'lak poli ustida hamda shurfning materik usti qatlamida yotgan madaniy qatlamda mil.avv. IV—III asrlarga oid sopol material aniqlangan. Sopoldan tashqari tosh yadrolar, urchuqboshi, mitti idishlar, six tagliklari va idish zanglari, mahalliy kulrang marmardan yasalgan laganlar ham bor.

Kuzatishlar natijasini jamlab, yodgorlik devori sistemasini va uni davrlashtirishni rekonstruktsiya qilish mumkin. Birinchi bosqich shahristonning yarim oval qismi qal'a devorlari qurilgan vaqtga mos keladi. U mil.avv. IV—III asrlarda dextdonchilik erla-rini ximoya qilish uchun qulay strategik punktdagi chegara qal'asi sifatida barpo etilgan. Usha vaqtda qal'ada, Xorazmning boshqa ko'pgina

¹⁰¹Ўша асап, 41 – 51 б.

¹⁰²Ўша асап, 41 – 51 б.

shaharlarida bo'lgani kabi, ikki qavatli otish yo'lagi bo'lgan va u, ehtimol, gumbaz bostirmali bo'lgandir. Qal'a devorining har bir qavatida nayzasimon jangovar shinaklar qo'yilgan¹⁰³.

Milodning boshida, aftidan, qal'a devorini tiklash va mustahkamlash borasida ish olib borilgan. Otish yo'lagining pastki qavati qurilgan. Shahristonning segmentsimon qismi ham shu davrda bunyod etilgan. Aftidan, uning yo'zaga kelishi qal'aning chegara punkti sifatidagi ahamiyati oshib borgani bilan bog'liq bo'lsa kerak. Qal'aning ikkala qismi oval istehkomning sharqiy devori o'rtasida rekonstruktsiya qilingan darvoza orqali tutashgan bo'lsa kerak III asr oxiri — IV asr boshida shahriston, ehtimol, suv yetishmasligi tufayli bo'shab qolgan¹⁰⁴.

Qo'rg'oshin qal'a. Qoraqalpogiston Respublikasi Ellikqal'a tumani hududida joylashgan. Shahriston burchaklari olam taraflariga yo'nalgan 132x89 m o'lchamdagi to'g'ri burchak shaklida. Qo'shdevor materik qatlam ustiga qurilgan va ayrim joylarda 14—16 m qalinlikda saqlanib kolgan. Tashqi devorning qalinligi asosida 2,35 m, ichkisini — 2—2,20 m. Otish yo'lagining eni 2,35 m. Tashqi devor asosga qarab 85° nishab qilib ko'tarilgan. Devorning quyi qismi materi qdan 1,52 m balandlikda paxsadan ko'tarilgan, keyin loy korishmada xom g'isht (40-41x40-41x10-11 sm) terilgan. Rinita bitta, ikkita parallel chiziqli yoki kesishuvchi to'g'ri yoxud egri chiziqlardan iborat tamg'a, xatto barmoq ham bosilgan¹⁰⁵.

Qal'a devori uzun tomonda uchtdan, qiska tomonda bittadan burj bilan kuchaytirilgan (burchak burjlari bundan mustasno). Ular to'g'ri burchakli va yarim oval shaklda ishlangan. Har bir devordagi

¹⁰³ Ўша асар, 41 – 51 б.

¹⁰⁴ Ходжаниязов Г. К изучению оборонительных сооружений Малой Кырккыз калы. // ВКФ АН РУз. N1. Нукус. 1985.

¹⁰⁵ Ходжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. (Мил.авв. VIасрдан – милодий IV асргача). Тошкент, <<Ўзбекистон>>, 2007, 41 – 51 б.

burjlar oralig'i har xil. Shimoli-sharqiy devorda ular bir-biridan 27—37 m masofada, janubi-sharqiy devorda esa 6—31 m masofada joylashgan. Ularning eni 6,80—8,40 m bo'lib, 7,60—8 m turtib chiqqan. Burchaklarni himoya qilish uchun har xil kombinatsiyalardan foydalanilgan: shinaklar qiyalatib qo'yilgan, burjlar qo'shaloq va yakka qurilgan. Qal'a devorida, burjlarda shinaklar va darcha o'rinlari qoldirilgan¹⁰⁶.

Kirish joyi janubi-sharqiy devorning o'rtasida bo'lib, to'g'ri burchak shaklidagi 10,90 x 19,80 m o'lchamli peshdarvoza inshooti bilan himoyalangan. Adashtirma yo'l devorlarida shinaklar qoldirilgan. Qal'a har tarafdin (janubi-g'arbiy tarafdin tashqari) kvadrat shakldagi xom g'ishtdan ko'tarilgan proteyxizma bilan o'rab olingan. U qal'a devori chetidan 9—10 m qochib turadi. Qal'aning janubi-g'arbida, proteyxizmadan uch metr masofada eni 5 m ga yaqin, chuqurligi hozir 1,50 m ga yaqin bo'lgan xandaq bo'lganligi aniklandi.

Otish yo'laklaridan hamda qazilgan shurfdan olingan ashyoviy materiallar orasida mil.avv. IV—III asrlarga oid yirik idishlarning parchalari borligini aloqida qayd etib o'tish zarur. Yo'lbars tasviri tushirilgan idish parchalari shu davrga taalluqli. Strategiya nuqtai nazaridan muhim joyni egallagan Qo'rg'oshin-qal'a mil.avv. IV—III asrlarda yuzaga kelgan, aftidan, kadimgi Xorazm davlatining ichki hududlarini dasht qabilalarining shimoli-sharq tomondan bo'ladigan hujumidan himoya qilgan¹⁰⁷.

Qal'a mavjudligining ikkinchi bosqichida (I—III asrlar) adashtirma yo'lga janubi-sharqdan kirilgan. Bu yo'lning ichki bo'shlig'ida qum qatlami ustidan g'isht to'shalgan. Pandus barpo

¹⁰⁶Ўша асар, 41 – 51 б.

¹⁰⁷Ўша асар, 41 – 51 б.

qilingan. Katta Qirqqiz kanalida suv yetishmasligi tufayli, aftidan, III—IV asrlar oxirida Qo'rg'oshinqal'a va uning atrofidagi qishloqlar bo'shab qolgan¹⁰⁸.

Devkesgan g'ovi. Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iro't tumani hududida joylashgan. U Ustyurtning janubi-sharqiy do'ngli-gida bo'lib, uni eng tor qismidan o'tgan. Ob'ekt yuzasi sershag'al tuproq g'ov sifatida saqlanib qolgan, balandligi 1—2 m, eni 5 m gacha. G'ov platonning janubi-sharqiy do'ngligini butun eni bo'ylab, jarliqdan jarlikkacha 2600 metr uzunlikda kesib utadi. U loy qorishma bilan qumtosh plitalardan (50x40x120, 56x38x9, 37 x 40 x 13 m va sh.q) ko'tarilgan. qalinligi 1,40 m, saqlanib qolgan balandligi 0,60 dan 1,50 m gacha. G'ovning tashqi shimoliy tarafida ham qumtosh plitalardan ko'tarilgan, qalinligi 0,80 m, balandligi 0,90 m bo'lgan devor mavjud. G'ov bilan devor orasidagi eni 1 m li bo'shliq tuproq-qumtosh bilan to'ldirilgan, shu tariqa g'ovning oldida maxsus maydoncha hosil qilingan. Maydoncha bo'ylab eni 3 m, chuqurligi 0,50—0,70 m bo'lgan xandaq yaxshi sezilib turadi¹⁰⁹.

Bu kompleksga, g'ovdan tashkari, bir necha ob'ekt kirgan, ular shartli ravishda I, II, III, IV ob'ektlar, deb nomlandi. Tarxi berk doira shaklida bo'lgan I ob'ekt diametri 50 m ga yaqin bo'lib, g'ovning sharqiy chekkasida, bevosita jarlik ustida joylashgan. Balanddigi 3—5 m. Tarxi joy relefidan kelib chiqib uchburchaksimon qilib olingan II ob'ekt g'ovning g'arbiy chekkasida, bevosita tik jarlik ustida joylashgan. Ob'ekt shimoli-sharqiy tomondan Dev-kesgan g'ovi bilan to'silgan, janubi-sharq

¹⁰⁸ Я.Ф. Фуломов, Хоразм сугорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача) ЎзССР ФА нашриёти. Тошкент – 1957

¹⁰⁹ Ходжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. (Мил.авв. VIасрдан – милодий IV асргача). Тошкент, <<Ўзбекистон>>, 2007, 41 – 51 б.

tomonidan kvadrat shakl-dagi (38-42x38-42-42x9-13 sm) xom g'ishtdan ko'tarilgan yoysimon qo'shdevor bilan, G'arb tomondan esa tik jarlik bilan to'silgan, devor yo'q. Tashqi devor qalinligi—1,90 sm, ichkisiniki—1,60 sm. Yo'lakning eni 2 m, balandligi 0,10 dan 0,70 m gacha.

Istehkomga kiriladigan joy janub tomonda bo'lib, peshdarvoza inshooti bilan himoyalangan. Adashtirma yo'l tarxi to'g'riburchak (51-rasm), devorlar orasida yo'lak bor. Uning devorida bir-biridan 2,4 m masofada joylashgan uchta shinak asosi saqlanib qolgan (54-rasm). Ob'ekt ichida tarxi yarim oval shaklda, bo'yi 35 m, eni 39 m bo'lgan mustahkamlangan bino bor. Qo'shdevor 1 m balandlikda saqlanib qolgan. Tashqi devorning qalinligi 2,40 m, ichkisiniki —1,10—1,50, yo'lakning eni 2,40 m. Bino ichidagi xonalardan ikkitasi (№ 2 va 7) uchburchak shaklida, qolganlarining tarxi kvadrat va to'g'ri burchak shaklda. Bu xonalarning eshigi o'rni binoning «T» simon yo'lak joylashgan markaziga qaragan. Janubi-sharq tomonga yo'nalgan yo'laklardan biri, aftidan, binoga kiriladigan asosiy joyga olib borsa kerak Janubi-g'arbiy tomonda joylashgan perpendikulyar yo'lak berkligi ham buni tasdiqlaydi. Xonalarning ichki jihozlari juda kam, bu jihozlar cheti va devori yaxshi pardozlangan o'choq va don saqlanadigan o'ralardan iborat¹¹⁰.

Markaziy bino mayda toshtaxtachalar terib qurilgan. Ta'mirlashda, jumladan, xonalarga kiriladigan joylarni urishda xom g'isht (38-42x38-42x10-13 sm) ishlatilgan.

I ob'ektning shimoliy tomonida III ob'ekt bo'lib, ular Devkesgan g'ovi bilan ajratib qo'yilgan. Bu ob'ekt tarxi yarim oval shakldagi (130x80 m) tuproq g'ov bilan to'silgan. U 0,30—0,60 m

¹¹⁰Ўша асар, 41 – 51 б.

balandlikda, 1,50—2 m qalinlikda saqlanib qolgan. Uning shimoli-g'arbiy tomonida bel bo'lib, o'tish joyi, ehtimol, shu erda bo'lgandir. Ichida jarga yaqin joyda tuproqdan yuzasi sershag'al, balandligi 5 m dan ziyod, diametri 30 m ga yaqin qo'rgo'nsimon ko'tarma bor¹¹¹.

IV ob'ekt tarxi to'g'riburchak shakldagi uydan (15 x 13 m) iborat bo'lib, II va III ob'ektlardan 200 m g'arbda joylashgan.

Qazishmada ikki qurilish gorizontali aniq ko'rinib turibdi. O'z ob'ektlariga ega bo'lgan Devkesgan g'ovining, ya'ni tashqi istehkomga ega yarim oval binoning, ehtimol ID ob'ektning ham, qurilishi birinchi davrga to'g'ri keladi. Bu davr sanasi gorizontali yo'l-yo'l naqsh berilgan arxaik idishga xos xumlar parchalariga qarab belgilanadi. Bo'lar shakliga ko'ra devorlari qobirgali arxaik idishlarga yaqin xumchalar, kizil angob berilgan kosasimon idishlar, uch qobirg'ali vtulkasimon jez paykon va hokazolardir. Shu kabi material so'nggi Jingiljeda ham ma'lum bo'lib, mil.avv. V—IV asr oxiri yoki IV asr boshiga oid deb hisobla¹¹².

Mil. avv. IV—III asrlarni o'z ichiga oluvchi ikkinchi davrda uncha katta bo'lmagan qayta qurilishlar qilindi: g'ov oldiga qo'shimcha de-vor — «proteyxizma» qurilib, ichki tomondan tirama devor bilan qoplandi, adashtirma yo'lning otish yo'lagi 1,80 dan 0,70 m gacha to-raytirildi, oyoq osti tuproq solib tekislandi, markaziy binoning ayrim xonalari (№ 5, 9, 13, 14) devorlari o'rni urildi. Mil. avv. III—II asrlar bo'sag'asida kompleksda, aftidan, hayot to'xtagan. Shunday qilib, Devkesgan g'ovi mil.avv. V—IV va IV—III asrlardagi chegara mudofaa inshooti bo'lib, Xorazm davlatining shimoli-g'arbiy chegaralarini mudofaa qilish uchun

¹¹¹Ўша асап, 41 – 51 б.

¹¹²Ўша асап, 41 – 51 б.

bunyod etilgan. I va II ob'ektlarda davlatning hayotiy muhim chegara zastavalari joylashgan ko'rinadi. II ob'ektda qo'mondonlik punkti bo'lib, garnizon rahbarlari shu yerda turgan bo'lishini ham istisno etib bo'lmaydi. III ob'ektda esa aftidan, ko'chmanchilar bilan tovar ayirboshlaydigan punkt joylashgan. Shunday qilib, Devkesgan g'ovi kompleksi Xorazmning dehqonchilik vohasini shimol tomondan himoya qilgan harbiy istehkomlarning noyob tizimi bo'lib, uni bunyod etish markazlashgan vaqudratli davlatninggina qo'lidan kelgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Xorazm vujudga kelgan ibtidoiy madaniyat (o'troq turmush tarziga o'tish) sug'orma dehqonchilik bilan bog'liq ravishda rivojlangan. Xorazmda ilk ibtidoiy madaniyatning vujudga kelishi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bu yerda topilgan ahyoviy dalillar buning yaqqol namunasi hisoblanadi. Eng muhimi jihati shundaki, Xorazmning ibtidoiy madaniyatlarining barchasi, kanallar bo'yida joylashgan joylashgan bo'lib ularning barchasi mana shu kanallar nomi bilan bog'lanadi. Xorazm mintaqasidagi o'troq turmush tarzi madaniyatiga o'tish neolitda boshlansa-da, keyingi davrlarda nihoyatda kuchayadi. Buni arxeologik tadqiqotlar ham isbotlab turibdi.

Xorazm hududidagi bronza madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishi Xorazm bronza davri manzilgohlari dastlabki sug'orma dehqonchilikning vujudga kelsi bilan o'zaro bog'liq. Davrlar o'tishi bilan sug'orma dehqonchilik rivojlana borgan. Bronza davrida sug'orish tarmoqlari dastlab daryo deltalarning tor yon tomondagi irmoqlarida joylashgan bo'lib, qadimgi ziroatchilarning kvadrat shakldagi tomoqalari ularning atroflarida joylashgan. Suv havzalaridan uzoq bo'lgan O'rta Osiyoning boshqa hududlarida aholining asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan.

Xorazmdagi kaltaminor, tozabog'yop, amirobod va «городище с жилыми стенами» madaniyatlarida o'troq turmush tarzining rivojlanishi bosqichlarini va ularning o'sish dinamikasini ko'rishimiz mumkin. Bu esa bizda qadimda Xorazm hududida vujudga kelgan ibtidoiy madaniyat vujudga kelish omillari, shart-sharoitlari, rivojlanish bosqichlari, turmush tarzi, hunarmandchiligi to'g'risida yetarlicha tasavvur hosil qilishga imkon yaratadi.

Xorazm mintaqasining keyingi davrlarga xos bo'lgan davlatchilik tarixi esa, bevosita o'zbek davlatchilik tarixi bilan uzviy ravishda bog'liqdir.

Xorazm mintaqasidagi o'troq turmush tarziga o'tilishi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Xorazmda o'troq turmush tarziga o'tish neolit davridan boshlanib, kaltaminor madaniyati, bronza davrida o'troq-dehqonchilik madaniyatlari bo'lmish tozabog'yop va suvyorgan madaniyatlari misolida ko'rishimiz mumkin. Demak, bu madaniyatlarda dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Ona urug'i davri hisoblanadi.

Keyingi davrlarda esa, aniqrog'i temir davriga kelib Amirobod madaniyati mintaqada keng yoyilganini ko'rishimiz mumkin. Bu davr sanasi miloddan avvalgi I ming yillik boshlari (miloddan avvalgi X-VIII asrlar) ga to'g'ri keladi. Aynan mana shu davrda qabila ittifoqlarining muatahkamlashuvi ro'y beradi. Undan keyingi davrda, ya'ni temir davrining o'rtalarida Xorazmda ilk shahrsozlik madaniyati shakllanib, ravnaq topadi.

Bu davrdan Xorazmda O'zbekistonning boshqa hududlari kabi shahrlar shakllanishini ko'rishimiz mumkin. Bu davr qal'alar tipida bo'lib, ularning ko'pchiligi mudofaa tizimidagi inshootlar hisoblanib, Xorazm mintaqasini turli tomonlardan hujumlardan saqlab turish uchun qurilgan.

Bu davr shaharsozlik madaniyatining biz uchun eng muhim ahamiyati shundaki, Xorazm shaharsozligi bevosita O'zbekiston davlatchilik tarixi bilan bog'liq hisoblanadi. Aynan shu nuqtai nazardan olib qaraganda Xorazmdagi o'troq turmush tarzining shakllanish va rivojlanish jarayonlari juda ham muhim hisoblanadi.

Xorazmda o'troq turmush tarzi manzilgohlari O'zbekistonning boshqa hududlari kabi aynan bir davrda rivojlandi deb aytishga to'liqligicha asosimiz bor. Chunki bronza davrida vatanimizning boshqa hududlari (Buxoro vohasi-Zamonbobo; Surxon vohasi –Sopollitepa) da ham o'troq turmush tarzi manzilgohlari shakllandi va taraqqiy topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q// Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T-7. Toshkent 1999. 135 b.
2. С. П. Толстов, По следам древнехорезмийской цивилизации. Издательство АН СССР Москва • Ленинград 1948,
3. С.П. Толстов, Древний Хорезм, Издание МГУ Москва—1948,
4. С.П. Толстов, По древнем дельтам Окса и Яксарта, Москва, Наука – 1962.
5. Я.Ф. Гуломов , Хоразм сугорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача) ЎзССР ФА нашриёти. Тошкент – 1957.
6. Я.Ф. Гуломов , Хоразм сугорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача) ЎзССР ФА нашриёти. Тошкент – 1959.

7. G'ulomov Y. Qadimgi Xoprazmning sug'orilish tarixidan. Toshkent. - 1956.
8. Жданко Т. А. Этнографические исследования Хорезмской экспедиции (народы,проблемы, труды)// Культура и искусство Древнего Хорезма. –М.: 1981.
9. А.А. Фармозов, Об открытии кельтеминарской культуры в Казахстане, Вестник КазФАН, 1945.
- 10.Топрак-кала. Дворец. Москва: 1984 (Глава VI. Документы. Чтение и комментарии В.А. Лившица).
- 11.А.И. Тереножкин, Археологическая разведка в западной части Узбекистана, ВДИ, 1947.
- 12.А.И. Тереножкин. О древнем гончарстве в Хорезме. Уз ФАН СССР Ахбороти, 1940,N 6, 1 табл.,1 – 2-фиг.
- 13.Манылов Ю. П., Ходжаниязов Г. Аяз кала 1 и Бурлы кала. (К изучению Хорезмской фортификации). // Археологические исследования в Каракалпакии. Ташкент, <<ФАН>>. 1981.
- 14.М.Ishoqov, S.Qudratov, D.Qodirova. O'rta Osiyo ilk shahrlari va davlatlari tarixidan. Toshkent. -2010. В 141.
- 15.Ягодин В.Н., Ходжаниязов Г. Вал Девкескенский. (К вопросу о функции и хронологии). // ВКФ АН РУз. N3. Нукус. 1986.
- 16.Ходжаниязов Г. Новые данные об оборонительных сооружениях Аяз калы 3. // ВКФ АН РУз. N 4. Нукус, 1987.
- 17.Ходжаниязов Г. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. (Мил.авв. VIасрдан – милодий IV асргача). Тошкент, <<Ўзбекистон>>, 2007.
- 18.http://www.culture.gov.tm/Keneurgenc/Keneurgenc_eng.html
- 19.<http://gym1505.ru/posle-urokov/nauka/arkheologicheskii-muzei/ekspozitsiya-muzeya/bronzoviy-vek>
- 20.www.opentextnn.ru/history/archaeology/expedition/Tolstov/?id
21. www.sovslov.ru/tolk/kulyttura.html

Пова

Пова-1




Рис. 1. Местоположение стоянки Джанбас-кала № 4.

Пова-2

Стоянка Джанбас-кала ИЧ Реконструкция жилища



Пова-3




Рис. 4. Образцы керамики из стоянки Джанбас-кала № 4.

Пова-4




Рис. 7. Большой дом в поселении амирабадской культуры Джанбас-кала № 7.




Рис 16. Образцы керамики из Кюзели-гыра (культура городищ с жилыми стенами).

Илова -6




Рис. 19. Калады-гир—схематический план (съёмка С. Толстова и С. Гасанова).

Илова -7




Рис. 20. Городище Кюзеи-гыр. Структура «Жилой стены». Реконструкция С. Толстова.

Нова-8



Ayoq qal'a komplekslari

